Navoiy shahri
"Davlat xizmatlari
markazi"tomonidan
2026-yil 27-aprelda
3209048-son bilan
"RO'YXATGA OLINGAN"

"Navoiyazot" AJ
Yagona aksiyadorining
2026-yil 9-apreldagi
78-son qaroriga muvofiq
"TASDIQLANGAN"

# "NAVOIYAZOT"
# AKSIYADORLIK JAMIYATI
# USTAVI

*(YANGI TAHRIR)*

**Navoiy-2026**

**«ЗАРЕГИСТРИРОВАНО»**
**в «Центре государственных услуг» г. Навои**
**от 27 апреля 2026 года**
**№ 3209048**

**«УТВЕРЖДЕНО»**
**решением единственного акционера АО «Navoiyazot»**
**от 9 апреля 2026 года**
**№ 78**

# УСТАВ
# АКЦИОНЕРНОГО ОБЩЕСТВА
# «NAVOIYAZOT»

(НОВАЯ РЕДАКЦИЯ)

**Навои-2026**

| O‘zbek tilida | На русском языке |
|---|---|
| **Muqaddima** | **Преамбула** |
| A. “Navoiyazot” AJ Ustavining avvalgi tahriri “Navoiyazot” AJ aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining 2025-yil 10-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan (Navoiy shahar Davlat xizmatlari markazi tomonidan 2025-yil 22-sentabrdagi 2951669-son raqami bilan ro‘yxatga olingan).<br>B. Ustavda quyidagi normativ hujjatlarning qoidalari aks ettirilgan:<br>-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 28-apreldagi PQ-2340-son qarori;<br>- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoni;<br>- O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 06-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-370-sonli Qonuni;<br>- Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig‘ilishining 2015-yil 31-dekabrdagi 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Korporativ boshqaruv kodeksi” va Davlat aktivlari agentligining 2023-yil 23-iyundagi 145-son buyrug‘ining 1-ilovasi “Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari”;<br>- O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2019-yil 20-martdagi O'RQ -531-son, 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-son, 2022-yil 14-martdagi O'RQ-759-son, 2022-yil 29-martdagi O'RQ-760-son, 2023-yil 18-yanvardagi O'RQ-814-son qonunlari;<br>- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 08-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-sonli farmoni.<br>C. Mazkur Ustav “Navoiyazot” AJ Yagona aksiyadorining 2026-yil 9-apreldagi qarori bilan yangi tahrirda tasdiqlangan. | A. Предыдущая версия Устава Акционерного общества «Navoiyazot» была утверждена протоколом общего собрания акционеров АО «Navoiyazot» от 10 сентября 2025 года (зарегистрирован Центром Государственных услуг города Навои регистрационный №2951669 от 22 сентября 2025 года).<br>B. В Уставе отражены положения нижеследующих нормативных документов:<br>- Постановление Президента Республики Узбекистан от 28.04.2015 года №ПП-2340 «О мерах по увеличению доли и значения частной собственности в экономике»;<br>- Указ Президента Республики Узбекистан от 15.05.2015 года №УП-4725 «О мерах по обеспечению надежной защиты частной собственности, малого бизнеса и частного предпринимательства, снятию преград для их ускоренного развития»;<br>- Закон Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан», включая закон Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» №ЗРУ-370 от 06 мая 2014 года;<br>- “Кодекс корпоративного управления”, утвержденный протоколом заседания комиссии по повышению эффективности деятельности акционерных обществ и совершенствованию системы корпоративного управления от 31 декабря 2015 г. N 9, и приложение 1 к приказу агентства по государственным активам от 23 июня 2023 г. №145 “Правила корпоративного управления для предприятий с государственным участием”;<br>- Законы Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан» от 20.03.2019 года №ЗРУ-531, от 29.10.2021 года № ЗРУ-726, от 14.03.2022 года № ЗРУ-759, от 29.03.2022 года № ЗРУ-760, от 18.01.2023 года № ЗРУ-814;<br>- Указ Президента Республики Узбекистан от 08.04.2022 года №УП-101 «Об очередных реформах по созданию условий для стабильного экономического роста путем улучшения предпринимательской среды и развития частного сектора».<br>C. Настоящий Устав в новой редакции утвержден решением единственного акционера АО «Navoiyazot» 09 апреля 2026 года. |
| **I. TO‘LIQ VA QISQARTIRILGAN FIRMA NOMI** | **I. ПОЛНОЕ И СОКРАЩЕННОЕ ФИРМЕННОЕ НАИМЕНОВАНИЕ** |
| 1.1. “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati (matn davomida Jamiyat deb nomlanadi), ustav fondi aksiyadorlarning jamiyatga nisbatan majburiy | 1.1. Акционерное общество «Navoiyazot» (далее по тексту Navoiyazot) является коммерческой организацией, уставный фонд которой разделен на определенное число акций, удостоверяющих обязательные |

| | |
|---|---|
| huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti hisoblanadi.<br>***Jamiyatning to'liq nomlanishi:***<br>O'zbek tilida (kirill alifbosida): "Navoiyazot"aksiyadorlik jamiyati<br>O'zbek tilida (lotin alifbosida): "Navoiyazot"aksiyadorlik jamiyati<br>Rus tilida: Акционерное общество «Navoiyazot»<br>Ingliz tilida: Navoiyazot joint stock company<br>***Jamiyatning qisqartirilgan nomlanishi:***<br>O'zbek tilida (kirill alifbosida): "Navoiyazot" AJ<br>O'zbek tilida (lotin alifbosida): "Navoiyazot" AJ<br>Rus tilida: AO "Navoiyazot"<br>Ingliz tilida: Navoiyazot JSC | права акционеров по отношению к Navoiyazot.<br>***Полное наименование общества:***<br>На узбекском языке (кириллица): «Navoiyazot» акциядорлик жамияти<br>На узбекском языке (латиница): «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyati<br>На русском языке: Акционерное общество «Navoiyazot»<br>На английском языке: Navoiyazot joint stock company<br>***Сокращенное наименование общества:***<br>На узбекском языке (кириллица): "Navoiyazot" АЖ<br>На узбекском языке (латиница): "Navoiyazot" AJ<br>На русском языке: АО «Navoiyazot»<br>На английском языке: Navoiyazot JSC |
| **II. JAMIYATNING JOYLASHGAN MANZILI VA ELEKTRON POCHTASI** | **II. МЕСТОНАХОЖДЕНИЕ И ЭЛЕКТРОННЫЙ АДРЕС ОБЩЕСТВА** |
| 2.1. Joylashgan manzili (pochta adresi): O'zbekiston Respublikasi, 210105, Navoiy viloyati, Navoiy shahri-5;<br>Elektron pochta manzili: office@navoivazot.uz<br>Rasmiy veb-sayti: www.navoivazot.uz | 2.1. Местонахождение (почтовый адрес): Республика Узбекистан, 210105, Навоийская область, г. Навои-5<br>Адрес электронной почты: office@navoiyazot.uz<br>Адрес веб-сайта: www.navoiyazot.uz |
| **III. JAMIYATNING FAOLIYAT YURITISH MUDDATI** | **III. ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА** |
| 3.1. Jamiyatning faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan. | 3.1. Продолжительность деятельности Navoiyazot не ограничена. |
| **IV. JAMIYATNING HUQUQIY MAVQEI VA HUQUQLARI** | **IV. ЮРИДИЧЕСКИЙ СТАТУС И ПРАВА ОБЩЕСТВА** |
| 4.1. Jamiyat davlat korxonasi hisoblangan "Navoiazot" ishlab chiqarish birlashmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Davlat Qo'mitasining 2002-yil 29-martdagi 86k-PO-sonli buyrug'iga muvofiq "Navoiyazot" Ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tuzish natijasida ta'sis etilib, shundan so'ng, "Navoiyazot" OAJning barcha huquq va majburiyatlarining huquqiy vorisi hisoblangan holda, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni yangi tahrirda tasdiqlanishi munosabati bilan (O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 06-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-370-sonli Qonuniga muvofiq) "Navoiyazot"aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tuzilgan. | 4.1. Navoiyazot учреждено в результате преобразования государственного предприятия Производственное объединение «Навоиазот» в форму Открытого акционерного общества «Navoiyazot» согласно приказу Государственного Комитета Республики Узбекистан по управлению государственным имуществом и поддержки предпринимательства от 29 марта 2002 года №86к-ПО, далее в форму Акционерного общества «Navoiyazot» в связи с утверждением в новой редакции закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» (Законом РУ «О внесении изменений и дополнений в закон Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров»» №ЗРУ-370 от 06 мая 2014 года), являясь правопреемником всех прав и обязательств ОАО «Navoiyazot».<br>4.2. Navoiyazot получает право юридического лица с момента его |

| | |
|---|---|
| 4.2. Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran yuridik shaxs maqomiga ega va o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va mazkur Ustavga muvofiq amalga oshiradi.<br>4.3. Jamiyat xo‘jalik, moliyaviy, tashkiliy va yuridik jihatdan mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, u o‘z mustaqil balansiga, alohida mol-mulkka, shu jumladan, o‘zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka egadir. O‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishga haqlidir.haqli, buxgalteriya hisobini yuritishning O‘zbekiston Respublikasida va Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarida umumqabul qilingan amaliyotiga muvofiq buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishi va balans hisobotlarini, foyda va zarar to‘g‘risida hisobotlarni, statistik va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashi lozim.<br>4.4. Jamiyat o‘zining tashkiliy-huquqiy shakli ko‘rsatilgan to‘liq firma nomiga va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishi mumkin. Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan joyi ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘lishi lozim. Jamiyat o‘zining nomi yozilgan muhr, shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.<br>4.5. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining butun hududida va boshqa mamlakatlarda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq shu’ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini, filial va vakolatxonalarini tuzishga haqli. | государственной регистрации и осуществляет свою деятельность в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и настоящим Уставом.<br>4.3. Navoiyazot юридическое лицо, которое обладает хозяйственной, финансовой, организационной и юридической самостоятельностью, имеет право открывать расчетные счета, счета в иностранной и местной валютах согласно законодательству Республики Узбекистан, от своего имени заключать сделки, приобретать имущественные и личные неимущественные права и нести обязанности, должно вести бухгалтерский учет и отчетность и составлять балансовые отчёты, отчёты о прибылях и убытках, статистические и финансовые отчёты в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и общепринятой практикой ведения бухгалтерского учета в Республике Узбекистан и МСФО, имеет право быть истцом, ответчиком или другой стороной на заседании суда или арбитраже, и/или подавать заявление о рассмотрении дел в суде, в административных органах или арбитраже, защищаться, участвовать и улаживать любые юридические вопросы в судах, административных органах или арбитраже Республики Узбекистан и за её пределами.<br>4.4. Navoiyazot вправе иметь круглую печать, штампы и бланки со своим полным официальным наименованием на государственном языке, собственную эмблему, а также зарегистрированные в установленном порядке товарные знаки и другие средства визуальной идентификации.<br>4.5. Navoiyazot имеет право создавать хозяйственные общества, филиалы и представительства на всей территории Республики Узбекистан и в других странах в соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан. |
| **V. JAMIYAT FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MAQSADI** | **V. ПРЕДМЕТ (ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ) И ЦЕЛИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА** |
| 5.1. Jamiyat o‘z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi va uning asosiy maqsadi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidan foyda olishdir, shuningdek Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun uning ishtirokchilari (aksiyadorlari)ni iqtisodiy manfaatlarini, intellektual salohiyatini, moddiy, nomoddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini birlashtirishdir.<br>5.2. Jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:<br>- mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish va sotish;<br>- xalq xo‘jaligi tovarlarini ishlab chiqarish va sotish;<br>- organik sintez va kam tonnajli kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;<br>- mahsulot, ish va xizmatlarning boshqa turlarini ishlab chiqarish va sotish.<br>5.3. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan har | 5.1. Основной целью Navoiyazot является объединение экономических интересов, интеллектуального потенциала, материальных, нематериальных, трудовых и финансовых ресурсов его участников (акционеров) для осуществления хозяйственной деятельности, направленной на получение прибыли и повышение эффективности деятельности Navoiyazot.<br>5.2. Основные направления деятельности общества:<br>- производство и реализация минеральных удобрений;<br>- производство и реализация товаров народного потребления;<br>- производство и реализация продукции органического синтеза и малотоннажной химии; |

| | |
|---|---|
| qanday boshqa faoliyatni amalga oshirishga haqli. Amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat turlari qonunchilikda belgilangan tartibda litsenziya berilganidan soʻng amalga oshiriladi.<br>5.4. Jamiyatning 5.1-bandda belgilangan maqsadlarini amalga oshirish uchun faoliyatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat boʻladi:<br>5.4.1. mahsulot ishlab chiqarish va tovarlarni sotish, korxonalar, tashkilotlar va fuqarolar uchun ishlarni bajarish va ularga xizmat koʻrsatish;<br>5.4.2. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;<br>5.4.3. Oʻz tovar va xizmatlariga narxlarni, xarid qilish va sotish shartlarini mustaqil belgilash (monopol mahsulot reestriga kiritilgan va narxlarni tartibga solish organi tomonidan deklaratsiyalanishi lozim boʻlgan mahsulot bundan mustasno);<br>5.4.4. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida mustaqil ravishda yoki vositachilar orqali ulgurji va chakana savdoni amalga oshirish;<br>5.4.5. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida tovar va mol-mulkning barcha (moddiy va nomoddiy, koʻchmas va koʻchadigan) turlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, koʻrish, qoʻlga kiritish, ular yuzasidan bitimlar tuzish, ijaraga olish yoki boshqa tarzda qoʻlga kiritish va/yoki yuqorida koʻrsatilgan mol-mulkni ijaraga berish, garovga qoʻyish, undan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish yoki istalgan boshqa tarzda uni tasarruf qilish;<br>5.4.6. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida istalgan shaxslar bilan mustaqil tarzda bitim va kelishuvlarni tuzish, tijorat va xoʻjalik faoliyati bilan shugʻullanish hamda zimmasiga majburiyatlar olish;<br>5.4.7. mazkur Ustavning 5.1-bandida va Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan jamiyatning tijorat faoliyati va uning asosiy vazifalari uchun zarur va mos boʻlgan import va eksport amaliyotini mustaqil tarzda yoki vositachilar orqali amalga oshirish;<br>5.4.8. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida shirkatlar, qoʻshma va sherikchilik korxonalarni tuzish boʻyicha bitimlarni tuzish va bekor qilish;<br>5.4.9. Oʻzbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shoʻba va tobe xoʻjalik jamiyatlarini, filial va vakolatxonalarini tuzish;<br>5.4.10. tovar va valyuta birjalarining ishida ishtirok etish; | - производство и реализация прочих видов продукции, работ и услуг.<br>5.3. Navoiyazot вправе осуществлять любую иную деятельность, не запрещенную законодательством Республики Узбекистан. Виды деятельности, на проведение которых требуется специальное разрешение (лицензия), осуществляется после выдачи лицензии в установленном законодательством порядке.<br>5.4. Для осуществления целей общества, определенных в пункте 5.1. предметом (основным направлением) деятельности будет:<br>5.4.1. производить продукцию осуществлять реализацию товаров, выполнять работы и оказывать услуги предприятиям, организациям и гражданам;<br>5.4.2. осуществлять внешнеэкономическую деятельность в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;<br>5.4.3. самостоятельно устанавливать цены (за исключением на продукцию, включенную в реестр монопольной и подлежащей декларированию органом ценового регулирования), условия покупки и продажи своих товаров и услуг;<br>5.4.4. осуществлять оптовую и розничную торговлю в Республике Узбекистан и за её пределами самостоятельно или через посредников, в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;<br>5.4.5. производить, перерабатывать, строить, приобретать, заключать сделки, арендовать или иным образом приобретать все виды товаров и имущества (материального и нематериального, недвижимого или движимого) и/или продавать, сдавать в аренду, закладывать, передавать права на использование или распоряжение вышеуказанным имуществом любым другим способом на территории Республики Узбекистан и за её пределами, и в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;<br>5.4.6. самостоятельно заключать контракты и соглашения с любыми лицами и заниматься коммерческой и хозяйственной деятельностью и принимать на себя обязательства любого рода в Республике Узбекистан и за её пределами в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;<br>5.4.7. осуществлять импортные и экспортные операции, самостоятельно или через посредников, которые необходимы и согласуются с коммерческой деятельностью общества и с его основными задачами, определенными в пункте 5.1 и в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;<br>5.4.8. заключать или расторгать контракты с другими предприятиями по созданию товариществ, совместных предприятий и т.д. в Республике Узбекистан и за её пределами в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;<br>5.4.9. создавать дочерние и зависимые хозяйственные общества, |

5.4.11. mablag‘larni qarzga olish yoki mablag‘ to‘plashni tashkil etish, jamiyat majburiyatlari bo’yicha yoki qarzdorning mol-mulkiga band solish yo‘li bilan har qanday shaxsga garov taqdim etish;

5.4.12. jamiyat mablag‘larini O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida investitsiya shaklida kiritish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq investitsiyalar, aksiyalar, kreditlar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni qo‘lga kiritish va/yoki boshqa shaxslarga o‘tkazish, almashtirish va ulardan boshqa tarzda foydalanish;

5.4.13. jamiyat fondlarini jamiyatning va uni istalgan sho‘ba korxonasining xo‘jalik faoliyatini kengaytirish uchun ishlatish;

5.4.14. istalgan shaxsga kafolat bilan yoki kafolatsiz, muvofiq bo‘lgan istalgan shartlarda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq pul mablag‘larini qarzga yoki avans (bo‘nak) sifatida berish yoki boshqa tarzda qarz berish;

5.4.15. jamiyatning har qanday mulkini yoki istalgan boshqa shaxsning kontraktlari yoki majburiyatlari bajarilishini majburiyatlar bilan yohud qarzdorning mol-mulkiga band solish huquqi bilan kafolatlash;

5.4.16. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jamiyatning istalgan aksiyalari va/yoki boshqa qimmatli qog‘ozlarini chiqarish yoki ularni istalgan shaxsga sotish hamda shunday chiqarish yoki sotish yuzasidan har qanday bitimga kirish;

5.4.17. ishonchnomalar berish;

5.4.18. O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq har qanday savdo markalari, nomlari, xizmat ko‘rsatish belgilari, dizaynlar, patentlar, ixtirolar, nou-xaular va intellektual mulkning boshqa shakllarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ariza berish va ro‘yxatdan o‘tkazish, ularni sotib olish yoki o‘zga usulda qo‘lga kiritish, sotish, litsenziyalash, o‘zga shaxslarga berish yoki ular bilan savdo qilish;

5.4.19. har qanday shaxsni yollash, jamiyatning har qanday mansabdor shaxsiga yoki xodimiga yoki sobiq mansabdor shaxsi yoki xodimiga yohud ularning qarindosh-urug‘lari yoki boqimandalariga ish haqi, pensiya va boshqa nafaqalarni to‘lash, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq pensiyalar, nafaqalar, mukofotlar va rag‘batlantirishlarni to‘lash bo‘yicha rejalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

5.4.20. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yo‘qotishlar, tavakkalchiliklar va ma’suliyatning boshqa turlaridan sug‘urtani amalga oshirish;

5.4.21. O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida ko‘rgazmaar va kimoshdi savdolarini tashkil etish va ularda ishtirok etish va shu kabi faoliyat bilan shug‘ullanish;

филиалы и представительства в Республике Узбекистан и за её пределами в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;

5.4.10. принимать участие в работе товарных и валютных бирж;

5.4.11. занимать средства или организовывать сбор средств, или предоставлять залог любому лицу по обязательствам общества, либо путём наложения ареста на имущество должника;

5.4.12. инвестировать средства общества в Республике Узбекистан и за её пределами, а также приобретать и/или переводить, обменивать, или иначе использовать инвестиции, акции, кредиты и другие ценные бумаги в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;

5.4.13. использовать фонды общества для развития хозяйственной деятельности общества и любой дочерней компании;

5.4.14. одалживать или авансировать денежные средства или иным образом предоставлять заем любому лицу, с гарантией или без и на любых подходящих условиях, и в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;

5.4.15. гарантировать обязательствами или правом наложения ареста на имущество должника любую собственность компании, выполнение контрактов или обязательств общества, или любого другого лица;

5.4.16. выпускать или продавать любые акции и/или другие ценные бумаги общества любому лицу и вступать в любое соглашение в связи с таким выпуском или продажей в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;

5.4.17. выдавать доверенности;

5.4.18. подавать заявки на регистрацию, регистрировать, покупать или иным образом приобретать, продавать, лицензировать, передавать или торговать в Республике Узбекистан и за её пределами любыми торговыми марками, именами, знаками обслуживания, дизайнами, патентами, изобретениями, ноу-хау и любыми другими формами интеллектуальной собственности в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;

5.4.19. нанимать любое лицо, выплачивать зарплаты, пенсии и другие пособия любому должностному лицу или работнику, или бывшему должностному лицу или работнику общества, или общества, или их родственникам или иждивенцам, разрабатывать и вводить планы по выплате пенсий, пособий, премий и поощрений в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;

5.4.20. осуществлять страхование от потерь, риска и любых других видов ответственности в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;

5.4.21. заниматься организацией и принимать участие в выставках и

| | |
|---|---|
| 5.4.22. basharti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoni talablariga zid bo'lmasa, xayriya va homiylik badallarini ajratish hamda sog'likni saqlashga, madaniyatga va ilm-fanga mablag'lar ajratish;<br>5.4.23. O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mustaqil tartibda yoki boshqa shaxslar bilan hamkorlikda yoki ular orqali yoxud agent, ikkilamchi pudratchi, sho'ba korxonasi yoki vakolatxona vositachiligida yoki o'zga usulda rahbar, agent, pudratchi yoki boshqa sifatda faoliyat yuritish;<br>5.4.24. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jamiyat qaramog'ida tibbiy muassasalarni ta'minlash yo'li bilan tibbiy yordam ko'rsatish;<br>5.4.25. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq reklama kompaniyalarini tashkil etish;<br>5.4.26. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ommaviy axborot vositalarini chop etishni tashkil etish;<br>5.4.27. savdo va savdo-vositachilik, jumladan eksportga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish; O'zbekiston Respublikasida va undan tashqarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ham mahalliy, ham xorijiy tayanch valyutada tovar (xizmat)larni xarid qilish/sotish. | аукционах, и другой подобной деятельностью в Республике Узбекистан и за её пределами;<br>5.4.22. делать благотворительные и спонсорские взносы и выделять средства на здравоохранение, культуру и науку, если это не противоречит требованиям Указа Президента Республики Узбекистан от 15 мая 2015 года №УП-4725 «О мерах по обеспечению надежной защиты частной собственности, малого бизнеса и частного предпринимательства, снятию преград для их ускоренного развития» и законодательству Республики Узбекистан;<br>5.4.23. действовать в Республике Узбекистан и за её пределами в качестве главы, агента, подрядчика или ином качестве, или в сотрудничестве с другими лицами и либо посредством, либо через агента, субподрядчика, дочерней компании или представительства, или иным способом в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;<br>5.4.24. оказывать медицинскую помощь путем содержания медицинских учреждений (пунктов) в обществе в соответствии законодательством Республики Узбекистан;<br>5.4.25. проводить рекламные кампании в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;<br>5.4.26. организовывать выпуск средств массовой информации в соответствии с законодательством Республики Узбекистан;<br>5.4.27. осуществлять торговую и торгово-посредническую деятельность, в том числе на экспорт; покупать/продавать товары (услуги) как за местную, так и за твердую валюту на территории Республики Узбекистан и за ее пределами, в соответствии с законодательством Республики Узбекистан. |
| **VI. JAMIYATNING USTAV FONDI VA AKSIYALARI** | **VI. УСТАВНЫЙ ФОНД И АКЦИИ ОБЩЕСТВА** |
| 6.1. Jamiyatning Ustav fondi Aksiyadorlar tomonidan xarid qilingan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim.<br>6.2. Jamiyatning har bir ishtirokchisi jamiyat aksiyalarini xarid qilganidan so'ng mazkur Ustavdan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi va bundan keyin «Aksiyador» deb nomlanadi.<br>6.3. Jamiyatning mol-mulki Ustav fondiga kiritilgan hissalar, xo'jalik faoliyati natijasida jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulot, olingan daromadlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ruxsat etilgan boshqa asoslarda qo'lga kiritilgan o'zga mol-mulkdan hosil bo'ladi.<br>6.4. Jamiyatning Ustav fondi **731 971 152 698,94** (yetti yuz o'ttiz bir milliard to'qqiz yuz yetmish bir million bir yuz ellik ikki ming olti yuz to'qson sakkiz) so'mdan iborat.<br>6.5. Jamiyat aksiyalarining umumiy miqdori **3 732 451 954** (uch milliard yetti | 6.1. Уставный фонд Navoiyazot составляется из номинальной стоимости акций общества, приобретенных Акционерами. Номинальная стоимость всех выпускаемых акций общества должна быть одинаковой.<br>6.2. Каждый участник Navoiyazot после приобретения акций Navoiyazot обретает права и обязанности, вытекающие из настоящего Устава, и именуется в дальнейшем «Акционер».<br>6.3. Имущество Navoiyazot образуется за счет взносов в Уставный фонд, продукции, произведенной Navoiyazot в результате хозяйственной деятельности, полученных доходов, а также иного имущества, приобретенного по другим основаниям, допускаемым законодательством Республики Узбекистан.<br>6.4. Уставный фонд Navoiyazot составляет **731 971 152 698,94** (семьсот тридцать один миллиард девятьсот семьдесят один миллиона сто пятьдесят две тысячи шестьсот девяноста восемь) сум.<br>6.5. Общее количество акций Navoiyazot составляет **3 732 451 954** (три |

| | |
|---|---|
| yuz o'ttiz ikki million to'rt yuz ellik bir ming to'qqiz yuz ellik to'rt) dona nominal qiymati 196 so'm 11 tiyin (bir yuz to'qson olti so'm o'n bir tiyin) bo'lgan oddiy nomli hujjatsiz aksiyalardan iborat.<br>6.6. Jamiyatning joylashtirilgan va e'lon qilingan aksiyalari "Qimmatli qog'ozlarning Markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari reestrida aks etadi. | миллиарда семьсот тридцать два миллиона четыреста пятьдесят один тысяч девятьсот пятьдесят четыре) штук простых именных бездокументарных акций номинальной стоимостью 196 сум 11 тийин (сто девяносто шесть сум одиннадцать тийин).<br>6.6. Размещенные и объявленные акции общества отражаются реестром акционеров акционерное общество "Центральный депозитарий ценных бумаг". |
| **VII. USTAV FONDINI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI** | **VII. ПОРЯДОК УВЕЛИЧЕНИЯ И УМЕНЬШЕНИЯ УСТАВНОГО ФОНДА** |
| 7.1. Ustav fondini ko'paytirish:<br>7.1.1. jamiyatning ustav fondi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.<br>7.1.2. jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida, tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtirishga haqli.<br>7.1.3. qo'shimcha aksiyalar e'lon qilingan Jamiyat ustavida belgilangan aksiyalarning soni doirasidagina Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.<br>7.1.4. jamiyatning ustav fondini aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi va Jamiyatning mazkur Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Basharti Kuzatuv kengashi bu masalalar yuzasidan bir ovozdan qarorga kelolmagan bo'lsa, bunday qaror mazkur Ustav va qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi lozim.<br>7.1.5. jamiyatning ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari, jumladan, qonunchilik va mazkur Ustavga muvofiq joylashtirilayotgan aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqiga ega aksiyadorlar uchun Jamiyatning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish shartlari belgilangan bo'lishi kerak. Jamiyatning ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yuli bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi.<br>Bunda Jamiyat ustavida ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak. Jamiyatning ustav fondi ko'paytirilayotganda Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan hak to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi. | 7.1. Увеличение Уставного фонда:<br>7.1.1. Уставный фонд Navoiyazot может быть увеличен путем размещения дополнительных акций.<br>7.1.2. Общество вправе размещать акции и ценные бумаги, конвертируемые в акции, путем открытой и закрытой подписки, на организованных торгах ценными бумагами в установленном законодательством порядке.<br>7.1.3. Дополнительные акции могут быть размещены Navoiyazot только в пределах количества объявленных акций, установленного Уставом общества.<br>7.1.4. Решение об увеличении Уставного фонда Navoiyazot путем размещения дополнительных акций и о внесении соответствующих изменений в настоящий Устав Navoiyazot принимается Наблюдательным Советом Navoiyazot единогласно. В случае если Наблюдательный Совет не может достичь единогласного решения по данным вопросам, такое решение подлежит рассмотрению и утверждению Общим собранием Акционеров Navoiyazot в порядке, определенным настоящим Уставом и законодательством.<br>7.1.5. Решением об увеличении Уставного фонда Navoiyazot путем размещения дополнительных акций должны быть определены количество размещаемых дополнительных простых и привилегированных акций, сроки и условия их размещения, в том числе, условия размещения дополнительных акций Navoiyazot для Акционеров, имеющих в соответствии с законодательством и настоящим Уставом преимущественное право приобретения размещаемых акций. Увеличение Уставного фонда Navoiyazot путем размещения дополнительных акций регистрируется в размере номинальной стоимости размещенных дополнительных акций. При этом количество объявленных акций определенных типов, указанное в уставе «Navoiyazot», должно быть уменьшено на число размещенных дополнительных акций этих типов.<br>В случае оплаты дополнительных акций Navoiyazot при увеличении Уставного фонда Navoiyazot за счет его собственного капитала, а также дивидендов, по которым принято решение о выплате их дополнительными |

| | |
|---|---|
| 7.1.6. jamiyatning ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. Jamiyatning ustav fondini uning o'z kapitali hisobidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirishda bu aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav fondi ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, Jamiyatning ustav fondini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.<br>7.2. Ustav fondini kamaytirish:<br>7.2.1. jamiyatning ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.<br>7.2.2. mazkur Ustavga muvofiq Jamiyatning ustav fondini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.<br>7.2.3. sabablarini ko'rsatgan holda Jamiyatning ustav fondini kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish hamda uni kamaytirish tartibini belgilash hakidagi qarorlar qonunchilikka muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilinadi. | акциями, размещение таких акций производится по номинальной стоимости акций Navoiyazot.<br>7.1.6. Увеличение Уставного фонда Navoiyazot путем размещения дополнительных акций может осуществляться за счет привлеченных инвестиций, собственного капитала общества и начисленных дивидендов в порядке, установленном законодательством. При увеличении Уставного Фонда Navoiyazot путем размещения дополнительных акций за счет его собственного капитала эти акции распределяются среди всех акционеров. При этом каждому акционеру распределяются акции того же типа, что и акции, которые ему принадлежат, пропорционально количеству принадлежащих ему акций. Не допускается увеличение Уставного Фонда Navoiyazot, в результате которого не обеспечивается соответствие суммы увеличения к номинальной стоимости одной акции.<br>7.2. Уменьшение Уставного фонда:<br>7.2.1. Уставный Фонд Navoiyazot может быть уменьшен путем уменьшения номинальной стоимости акций или сокращения их общего количества, в том числе путем приобретения части акций Navoiyazot с последующим их аннулированием.<br>7.2.2. В соответствии с настоящим Уставом разрешено уменьшение Уставного Фонда Navoiyazot путем приобретения и аннулирования части акций.<br>7.2.3. Решение об уменьшении Уставного Фонда с указанием причин и о внесении соответствующих изменений в Устав Navoiyazot, а также порядок уменьшения Уставного фонда Navoiyazot принимается Общим Собранием Акционеров в соответствии с законодательством. |
| **VIII. JAMIYATNING AKSIYALARI. JAMIYATNING QIMMATLI QOG'OZLARINI JOYLASHTIRISH VA SOTIB OLISH. AKSIYALARNI SOTIB OLISHNING IMTIYOZLI HUQUQI** | **VIII. АКЦИИ ОБЩЕСТВА. РАЗМЕЩЕНИЕ И ПРИОБРЕТЕНИЕ ЦЕННЫХ БУМАГ.ОБЩЕСТВА. ПРЕИМУЩЕСТВЕННОЕ ПРАВО НА ПРИОБРЕТЕНИЕ АКЦИЙ** |
| 8.1. Jamiyat oddiy nomlangan hujjatsiz aksiyasining nominal kiymati 196 so'm 11 tiyin (bir yuz to'qson olti so'm o'n bir tiyin).<br>8.2. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish uchun e'lon qilingan oddiy nomlangan hujjatsiz aksiyalarning umumiy miqdori **3 042 190 144** (uch milliard qirq ikki million bir yuz to'qson ming bir yuz qirq to'rt) dona bo'lib, nominal qiymati 196 so'm 11 tiyin (bir yuz to'qson olti so'm o'n bir tiyin).<br>8.3. Jamiyatning qimmatli qog'ozlarini chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va ular bo'yicha hisob-kitob qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Ustav bilan belgilanadi.<br>8.4. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan | 8.1. Номинальная стоимость простой именной бездокументарной акции общества составляет 196 сум 11 тийин (сто девяносто шесть сум 11 тийин).<br>8.2. Общее количество объявленных простых именных бездокументарных акций, размещаемых дополнительно с целью увеличения уставного капитала Общества, **3 042 190 144** (три миллиарда сорок два миллионов сто девяноста тысяч сто сорок четыре) штук номинальной стоимостью 196 сум 11 тийин (сто девяносто шесть сум оддинадцать тийин).<br>8.3. Порядок выпуска, регистрации, размещения и расчетов по ценным бумагам Navoiyazot определяется действующим законодательством Республики Узбекистан и настоящим Уставом.<br>8.4. Navoiyazot вправе выпускать акции, облигации и другие ценные |

| | |
|---|---|
| aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishga haqli.<br>8.5. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi qoidalari va talablariga muvofiq aksiyalarni qog‘ozsiz (naqdsiz) shaklda chiqaradi.<br>8.6. Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish, qonunchilikda belgilangan tartibda qimmatli qog‘ozlar egalarining depo hisobvaraqlari holati bo‘yicha markaziy ro‘yxatchi vazifasini bajaruvchi O‘zbekiston Respublikasining Markaziy depozitariysi tomonidan amalga oshiriladi.<br>8.7. Aksiyadorga uning aksiyalarga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi depozitariy O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda aksiya egasining yoki uning qonuniy vakilining talabiga ko‘ra ikki ish kuni ichida depo hisobvarag‘idan ko‘chirma berishi shart. Jamiyat aksiyalari va qimmatli qog‘ozlarning egasi depo hisobvarag‘idan ko‘chirmaga o‘ziga taalluqli bo‘lmagan axborot, shu jumladan boshqa qimmatli qog‘ozlarning egalari hamda ularga tegishli Jamiyat qimmatli qog‘ozlarining soni to‘g‘risidagi axborot kiritilishini talab qilish huquqiga ega emas.<br>8.8. Jamiyatning oddiy aksiyalarini bir shaxsdan boshqa shaxsga o‘tishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi tartib, qoida va talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Aksiyalarga bo‘lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag‘iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e’tiboran o‘tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan tasdiqlanadi. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog‘ozga bo‘lgan huquqlar o‘tgan paytdan e’tiboran o‘tadi.<br>8.9. Jamiyat aksiyadorlari reestrida ro‘yxatga olingan aksiyador o‘z aksiyalariga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi depozitariyni o‘ziga oid ma’lumotlardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilishi shart. Aksiyador o‘ziga oid ma’lumotlar o‘zgarganligi to‘g‘risidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, buning oqibatida aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun Jamiyat Markaziy depozitariy va aksiyadorning o‘z aksiyalariga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi depozitariy javobgar bo‘lmaydi.<br>8.10. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Jamiyat imtiyozli aksiyalar chiqarishi mumkin, ularning jami qiymati Ustav fondining 25% (yigirma besh foizi) dan oshib ketishi mumkin emas.<br>8.11. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq korporativ obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli. Aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlar Jamiyat tomonidan joylashtirilgan taqdirda e’lon qilingan (qo‘shimcha) aksiyalarning soni | бумаги, не запрещенные законодательством Республики Узбекистан.<br>8.5. Navoiyazot осуществляет выпуск акций в безбумажной (безналичной) форме в соответствии с правилами и требованиями законодательства Республики Узбекистан.<br>8.6. Формирование реестра акционеров общества осуществляется Центральным депозитарием Республики Узбекистан, выполняющим функции центрального регистратора по состоянию счетов депо владельцев ценных бумаг в порядке, установленном законодательством.<br>8.7. В порядке, установленном законодательством Республики Узбекистан, депозитарий, оказывающий услуги акционеру по учету прав на его акции, обязан по требованию владельца или его законного представителя предоставить выписку со счета депо в течение двух рабочих дней. Владелец акций и ценных бумаг Navoiyazot не имеет права требовать включения в выписку со счета депо не относящейся к нему информации, в том числе информации о других владельцах акций и ценных бумаг и количестве принадлежащих им ценных бумаг Navoiyazot.<br>8.8. Передача от одного лица другому простых акций общества осуществляется в соответствии порядком, правилами и требованиями законодательства Республики Узбекистан. Права на акции переходят к приобретателю акций с момента внесения в установленном порядке соответствующей приходной записи по счету депо приобретателя и подтверждаются выпиской со счета депо, выдаваемой депозитарием в порядке, установленном законодательством. Права, удостоверяемые акцией, переходят к их приобретателю с момента перехода прав на эту ценную бумагу.<br>8.9. Акционер, зарегистрированный в реестре Акционеров Navoiyazot, обязан своевременно информировать депозитарий, оказывающий услуги по учету прав на его акции, об изменении своих данных. В случае непредставления им информации об изменении своих данных, Navoiyazot, Центральный Депозитарий и депозитарий, оказывающий услуги по учету прав на его акции, не несут ответственности за причиненные Акционеру, в связи с этим убытки.<br>8.10. В соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан, Navoiyazot может выпускать привилегированные акции, суммарная стоимость которых не может превышать 25% (двадцать пять процентов) Уставного Фонда.<br>8.11. Navoiyazot вправе в соответствии с законодательством Республики Узбекистан выпускать и размещать корпоративные облигации и иные ценные бумаги. В случае размещения Navoiyazot ценных бумаг, конвертируемых в акции, количество объявленных (дополнительных) акций должно быть не менее количества, необходимого для конвертации в течение |

| | |
|---|---|
| ushbu qimmatli qog‘ozlarning muomalada bo‘lishi muddati mobaynida ayirboshlash uchun zarur miqdordan kam bo‘lmasligi lozim. Jamiyat o‘zi joylashtirgan qimmatli qog‘ozlar ayirboshlanishi mumkin bo‘lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qog‘ozlar egalarining roziligisiz qaror qabul qilishga haqli emas.<br>8.12. Jamiyat obligatsiyalarni va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishga haqli. Obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishning tartibi, miqdori va shartlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori bilan belgilanadi.<br>8.13. Jamiyat Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda qo‘shimcha chiqariladigan Jamiyat aksiyalariga ochiq va yopiq obunani o‘tkazishga haqli.<br>8.14. Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlariga hak to‘lash qonunchilikda belgilangan tartibda pul va boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek, pul bahosiga ega bo‘lgan huquqlar (jumladan mulkiy ) bilan amalga oshiriladi. Qo‘shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishda Jamiyat aksiyalariga xaq to‘lash shakli ularni joylashtirish to‘g‘risidagi qarori bilan belgilanadi.<br>8.15. Jamiyat o‘zi joylashtirgan aksiyalarni aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo‘li bilan Jamiyat ustav fondini kamaytirish to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra, shuningdek, ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq olishga haqli. Aksiyalarni olish vaqtida ularga haq to‘lash pul mablag‘lari bilan, shuningdek, boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek, pul qiymatida ifodalanadigan huquqlar (jumladan mulkiy) bilan amalga oshiriladi. Aksiyalarga haq to‘lash shakli aksiyalarni qo‘lga kiritish to‘g‘risidagi qaror bilan belgilanadi. Jamiyat aksiyalarini qo‘lga kiritish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib va qo‘yilgan cheklovlar hisobga olinib amalga oshiriladi.<br>8.16. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq Jamiyat joylashtirgan aksiyalarni yiriklashtirishga haqli bo‘lib, buning natijasida Jamiyatning ikki yoki undan ortiq aksiyasi xuddi shu turdagi bitta yangi aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda jamiyat ustaviga uning joylashtirgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o‘zgartishlar kiritiladi.<br>8.17. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra Jamiyat joylashtirgan aksiyalarni maydalashni amalga oshirishga haqli bo‘lib, buning natijasida Jamiyatning bir aksiyasi xuddi shu turdagi ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda Jamiyat ustaviga jamiyatning joylashtirgan aksiyalarining | срока обращения этих ценных бумаг. Navoiyazot не вправе принимать решения об ограничении прав, предоставляемых акциями, в которые могут быть конвертированы размещенные Navoiyazot ценные бумаги, без согласия владельцев этих ценных бумаг.<br>8.12. Navoiyazot вправе размещать облигации и иные ценные бумаги, предусмотренные законодательством Республики Узбекистан. Порядок, количество и условия выпуска облигаций и иных ценных бумаг определяется решением Общего Собрания Акционеров в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.<br>8.13. Navoiyazot имеет право проводить открытую и закрытую подписку на выпуск дополнительных акций Navoiyazot в порядке, предусмотренном решением Общего Собрания Акционеров и законодательством Республики Узбекистан.<br>8.14. Оплата акций и иных ценных бумаг Navoiyazot осуществляется в установленном законодательством порядке денежными и другими средствами платежа, имуществом, а также правами (в том числе имущественными), имеющими денежную оценку. Форма оплаты акций Navoiyazot при выпуске дополнительных акций и иных ценных бумаг определяется решением об их размещении.<br>8.15. Navoiyazot вправе приобретать размещенные им акции по решению Общего Собрания Акционеров об уменьшении Уставного Фонда Navoiyazot путем приобретения части размещенных акций и сокращения их общего количества, а также по решению Наблюдательного Совета Navoiyazot в целях их последующей перепродажи в установленном порядке. Оплата акций при их приобретении осуществляется денежными средствами, также другими средствами платежа, имуществом, а также правами (в том числе имущественными), имеющими денежную оценку. Форма оплаты за акции устанавливается решением о приобретении акций. Приобретение акций Navoiyazot осуществляется в порядке и с учетом ограничений, установленных законодательством Республики Узбекистан.<br>8.16. По решению Общего Собрания Акционеров Navoiyazot вправе произвести консолидацию размещенных акций, в результате которой две или более акций Navoiyazot конвертируются в одну новую акцию того же типа. При этом, в Устав общества вносятся соответствующие изменения относительно номинальной стоимости и количества размещенных акций общества.<br>8.17. По решению Общего Собрания Акционеров Navoiyazot вправе произвести дробление размещенных акций общества, в результате которого одна акция общества конвертируется в две или более акций Navoiyazot того же типа. При этом, в Устав Navoiyazot вносятся соответствующие изменения относительно номинальной стоимости и количества размещенных акций |

| | |
|---|---|
| nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.<br>8.18. Ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar vaziyatlar yuzaga kelganda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ularga tegishli aksiyalarning barchasini yoki bir qismini Jamiyat tomonidan sotib olinishini talab etishga haqlidir.<br>8.19. Aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni xarid qilishni imtiyozli huquqi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. | общества.<br>8.18. Акционеры - владельцы голосующих акций вправе требовать выкупа Navoiyazot всех или части принадлежащих им акций, при наступлении обстоятельств и в порядке, установленном законодательством Республики Узбекистан.<br>8.19. Преимущественное право приобретения акций или эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции, осуществляется порядке, установленном законодательством Республики Узбекистан. |
| **IX. DAROMAD (FOYDA)NI TAQSIMLASH, DIVIDENDLARNI TO'LASH VA ZARARLARNI QOPLASH TARTIBI.** | **IX. ПОРЯДОК РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ДОХОДА (ПРИБЫЛИ), ВЫПЛАТЫ ДИВИДЕНДОВ И ВОЗМЕЩЕНИЯ УБЫТКОВ.** |
| 9.1. Jamiyat tomonidan uning xo'jalik faoliyati natijasida olinadigan foyda amaldagi qonunchilikka binoan Jamiyat ixtiyorida qoladi hamda Jamiyat fondlarini shakllantirish hamda qonunchilik va mazkur Ustavga muvofiq dividendlarni to'lash uchun ishlatiladi.<br>9.2. Dividend soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash, qayta investitsiyalarni amalga oshirishdan so'ng jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.<br>9.3. Dividend Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilish qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.<br>9.4. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.<br>9.5. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.<br>Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida, shuningdek Jamiyat ustavida dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lab boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Dividendlar to'lash muddati shunday qaror qabul qilinganidan so'ng 60 (oltmish) kundan kech bo'lishi mumkin emas.<br>9.6. Jamiyat dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi, to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat | 9.1. Прибыль, получаемая Navoiyazot в результате его хозяйственной деятельности, после уплаты налогов по действующему законодательству остается в собственности Navoiyazot и используется для создания фондов Navoiyazot и выплаты дивидендов по акциям в соответствии с законодательством и настоящим Уставом.<br>9.2. Дивидендом является часть прибыли, остающейся в распоряжении общества после уплаты налогов и обязательных платежей, осуществления реинвестиций, подлежащая распределению среди Акционеров.<br>9.3. По решению Общего Собрания Акционеров Navoiyazot дивиденды могут быть выплачены денежными средствами или другими законными средствами платежа либо ценными бумагами общества.<br>9.4. Дивиденды распределяются между Акционерами пропорционально числу и типу принадлежащих Акционерам акций.<br>9.5. Решение о выплате дивидендов, размере дивиденда, форме и порядке его выплаты по акциям каждого типа принимается Общим Собранием Акционеров Navoiyazot на основании рекомендации Наблюдательного Совета Navoiyazot, данных финансовой отчетности в случае наличия аудиторского заключения о ее достоверности. Размер дивидендов не может быть больше рекомендованного Наблюдательным Советом Navoiyazot. Общее Собрание Акционеров вправе принять решение о невыплате дивидендов по акциям определенных типов, а также о выплате дивидендов в неполном размере по привилегированным акциям, размер дивиденда по которым определен в уставе Navoiyazot. В решении о выплате дивидендов должны быть указаны даты начала и окончания выплаты дивидендов. Срок выплаты дивидендов не может быть позднее 60 (шестидесяти) дней со дня принятия такого решения.<br>9.6. Navoiyazot объявляет размер дивидендов без учета налогов с них, публикует данные о размере выплачиваемых дивидендов на официальных веб-сайтах уполномоченного государственного органа по регулированию |

| | |
|---|---|
| organining va jamiyatning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.<br>9.7. Dividendlarni e'lon qilish to'g'risidagi qaror qabul qilingan Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlari ro'yxatida qayd etilgan aksiyadorlar dividend olishga haqli.<br>9.8. Jamiyat aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas:<br>9.8.1. ustav fondining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'lingunga qadar;<br>9.8.2. agar dividendlar to'lanadigan vaqtda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;<br>9.8.3. agar jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi (ustav kapitali) va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa.<br>9.9. Zararlar Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan taqsimlanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan zararlar Jamiyatning zaxira fondi mablag'lari hisobiga qoplanishi mumkin. | рынка ценных бумаг и общества в сроки, установленные законодательством.<br>9.7. На получение дивиденда имеют право акционеры, зафиксированные в реестре акционеров общества, сформированном для проведения Общего Собрания Акционеров Navoiyazot, на котором принято решение об объявлении дивидендов.<br>9.8. Navoiyazot не вправе выплачивать и принимать решения о выплате дивидендов по акциям:<br>9.8.1. до полной оплаты всего Уставного Фонда общества при его учреждении;<br>9.8.2. если на момент выплаты дивидендов имеются признаки банкротства или указанные признаки появятся у Navoiyazot в результате выплаты дивидендов;<br>9.8.3. если стоимость чистых активов общества меньше суммы его Уставного Фонда и резервного фонда.<br>9.9. Распределение убытков осуществляется Общим собранием акционеров Navoiyazot. Убытки по решению общего собрания акционеров могут возмещаться за счет средств резервного фонда Navoiyazot. |
| **X. JAMIYATNING ZAXIRA VA BOSHQA FONDLARI** | **X. РЕЗЕРВНЫЙ И ИНЫЕ ФОНДЫ ОБЩЕСТВА** |
| 10.1. Jamiyatda sof foyda hisobidan:<br>- zaxira fondi;<br>- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur boshqa fondlar tashkil etiladi.<br>10.2. Zaxira fondi Jamiyat zararlarini qoplash, korporativ obligatsiyalarni so'ndirish, sof foyda yetmaganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash hamda boshqa mablag'lar bo'lmaganda Jamiyat aksiyalarini qayta sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.<br>10.3. Jamiyatning zaxira fondi Ustav fondining kamida 15% (o'n besh foizi) miqdorida shakllantiriladi. Har yili zaxira fondiga o'tkaziladigan foyda foizi jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi, ammo zaxira fondi mazkur bandda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning 5%dan kam bo'lishi mumkin emas.<br>10.4. Zaxira fondi to'liq yoki qisman sarflangan taqdirda majburiy ajratmalar qaytadan boshlanadi. | 10.1. В Navoiyazot создаются за счет чистой прибыли:<br>- резервный фонд;<br>- другие фонды, необходимые для деятельности Navoiyazot, определяе Общим Собранием Акционеров.<br>10.2. Резервный фонд предназначается для покрытия убытков Navoiyazot, погашения корпоративных облигаций, выплаты дивидендов привилегированным акциям при недостатке чистой прибыли и выкупа акций Navoiyazot в случае отсутствия иных средств. Резервный фонд не может быть использован для иных целей.<br>10.3. Резервный фонд Navoiyazot формируется в размере не менее 15% (пятнадцать процентов) Уставного Фонда. Процент прибыли, ежегодно переводимой в Резервный фонд, определяется Общим Собранием Акционеров Navoiyazot, но не может быть менее 5% от чистой прибыли, до достижения размера Резервного фонда, установленного в настоящем пункте.<br>10.4. Обязательные отчисления возобновляются, если Резервный фонд будет израсходован полностью или частично. |
| **XI. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI** | **XI. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ АКЦИОНЕРОВ ОБЩЕСТВА** |

| | |
|---|---|
| 11.1. Jamiyat aksiyadorlari mazkur Ustav va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.<br>11.2. Aksiyadorlar tomonidan huquqlarini amalga oshirilishi boshqa Aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan himoyalanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.<br>11.3. Aksiyalarni boshqa shaxslar tasarrufiga o'tkazishga qo'yilgan cheklovlar ushbu aksiyalarning egasi hisoblangan aksiyadorni Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyalar bo'yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.<br>11.4. Aksiyalarning kamida 10 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar korxona faoliyatini tekshirish uchun tashqi audit o'tkazishga ta'sir ko'rsatish huquqiga ega. | 11.1. Акционеры Navoiyazot имеют права и несут обязанности, предусмотренные настоящим Уставом и действующим законодательством Республики Узбекистан.<br>11.2. Осуществление прав Акционером не должно нарушать права и охраняемые законом интересы других Акционеров.<br>11.3. Установление ограничения на отчуждение акций не лишает права Акционера владельца этих акций участвовать в управлении Navoiyazot и получать дивиденды по ним в порядке, установленном законодательством.<br>11.4. Акционеры, владеющие не менее чем 10% акций вправе инициировать проведение внешнего аудита для проверки деятельности предприятия. |
| **XII. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI** | **XII. ОРГАНЫ УПРАВЛЕНИЯ ОБЩЕСТВА** |
| 12.1. Jamiyat boshqaruv organlari - aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi (Jamiyat boshqaruvi) hisoblanadi.<br>12.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatni boshqarishning oliy organi hisoblanadi. | 12.1. Органами управления Navoiyazot являются: Общее Собрание Акционеров, Наблюдательный Совет и исполнительный орган (Правление Navoiyazot).<br>12.2. Общее Собрание Акционеров является высшим органом управления Navoiyazot. |
| 12.3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini, Kuzatuv Kengashini va boshqaruvni o'tkazish, saylash tartibi va vakolatlari mazkur Ustav va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilanadi. | 12.3. Порядок проведения, избрания и полномочия Общих собраний Акционеров, заседаний Наблюдательного Совета и Правления устанавливается настоящим Уставом и законодательством Республики Узбекистан. |
| **XIII. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI** | **XIII. ОБЩЕЕ СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ** |
| 13.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari, yillik umumiy yig'ilishlar va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarga bo'linadi.<br>13.1.1. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi har yilda kamida bir marta, moliya yili tugaganidan keyin 6 (olti) oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi (yillik) umumiy yig'ilishi har yili odatda 30 iyun sanasigacha o'tkaziladi.<br>13.1.2. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi zarurat yuzasidan chaqiriladi.<br>13.2. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida:<br>13.2.1. jamiyatning yillik balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlari;<br>13.2.2. jamiyatning foyda va zararlarini taqsimlash;<br>13.2.3. jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining natijalari to'g'risida auditorlik tashkilotining hisoboti; | 13.1. Общее Собрания Акционеров подразделяются на Годовые Общие Собрания и Внеочередные Общие Собрания.<br>13.1.1. Годовое Общее Собрание Акционеров созывается не реже одного раза в год, не позднее чем через 6 (шесть) месяцев после окончания финансового года.<br>13.1.2. Собрания, проводимые помимо Годового Общего Собрания Акционеров, считаются Внеочередными. Внеочередное Общее Собрание Акционеров созывается по мере необходимости.<br>13.2. На Годовом Общем Собрании Акционеров рассматриваются в обязательном порядке и утверждаются:<br>13.2.1. Годовой отчет Navoiyazot, балансовый отчет и отчет о прибылях и убытках;<br>13.2.2. Распределение прибыли и убытков Navoiyazot;<br>13.2.3. Отчеты Аудиторской организации касательно результатов |

13.2.4. ijroiya organi va kuzatuv kengashi rahbarining Jamiyat faoliyati va moliyaviy holati, Jamiyatni rivojlanish strategiyasiga erishish boʻyicha koʻrilayotgan chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi hisobotlari;

13.2.5. jamiyat aksiyadorlari oʻrtasida dividendlarni taqsimlash;

13.2.6. jamiyat Kuzatuv kengashini saylash;

13.2.7. jamiyat sanoq komissiyasi a'zolarini tayinlash;

13.2.8. jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (boshqaruv raisi), kollegial ijroiya organining (boshqaruv a'zolari) a'zolari, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi toʻgʻrisidagi masalalar hal etiladi, basharti mazkur Ustavga muvofiq konkurs tanlov natijalari boʻyicha Kuzatuv kengashiga berilgan vakolatlarga muvofiq bunday tayinlashlar avvalroq Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshirilmagan boʻlsa;

13.2.9. jamiyat tomonidan qonunchilikda belgilangan korporativ boshqaruv me'yorlariga rioya etilishi boʻyicha Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlari koʻrib chiqiladi.

13.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yigʻilishi shuningdek, aksiyadorlarning, Kuzatuv kengashining qarori va Jamiyat ijroiya organining tavsiyasi boʻyicha mazkur Ustav va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda Jamiyat faoliyatining boshqa masalalarini ham koʻrib chiqishi mumkin.

13.4. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yigʻilishlarida aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi vakolatiga kiradigan hamda aksiyadorlarning yillik umumiy yigʻilishi oʻtkazilgunga qadar yuzaga kelib, darhol hal etilishi talab qilinadigan masalalar koʻrib chiqiladi.

13.5. Aksiyadorlarning umumiy yigʻilishini oʻtkazish sanasi va tartibi, yigʻilish oʻtkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yigʻilishini oʻtkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) roʻyxati Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yigʻilishlarini chaqirtirish va oʻtkazish tartibi boʻyicha barcha ishlarni ijroiya organi rahbari (boshqaruv raisi) olib borib, mazkur faoliyatni u Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda amalga oshiradi.

13.6. Barcha oddiy aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli boʻlgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi oʻtkazilmaydi. Qonun va jamiyat ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi vakolatiga kiritilgan masalalar boʻyicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak. Shu bilan birga, aksiyadorlar umumiy yigʻilishiga tayyorgarlik koʻrish, uni chaqirish va oʻtkazish tartibini hamda

финансово-хозяйственной деятельности Navoiyazot;

13.2.4. Отчет руководителя исполнительного органа и наблюдательного совета о деятельности и финансовом положении Navoiyazot, о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Navoiyazot;

13.2.5. Распределение дивидендов между Акционерами Navoiyazot;

13.2.6. Избрание Наблюдательного Совета Navoiyazot;

13.2.7. Назначение членов Счетной Комиссии Navoiyazot;

13.2.8. Вопросы о возможности продления срока, или расторжения договора с руководителем исполнительного органа (председатель правления), членами коллегиального исполнительного органа (члены правления) и доверительным управляющим, при условии, что такие назначения не были произведены ранее Наблюдательным Советом Navoiyazot в соответствии с полномочиями, предоставленными Наблюдательному Совету настоящим Уставом по результатам конкурсного отбора;

13.2.9. Отчет Наблюдательного Совета Navoiyazot по соблюдению Navoiyazot установленных законодательством норм корпоративного управления.

13.3. Годовое Общее Собрание Акционеров может также рассматривать другие вопросы деятельности Navoiyazot по решению Акционеров, Наблюдательного Совета и по рекомендации руководителя исполнительного органа Navoiyazot, в порядке, предусмотренном настоящим Уставом и действующим законодательством.

13.4. На Внеочередных Общих Собраниях Акционеров рассматриваются вопросы, отнесенные к компетенции Общего Собрания Акционеров, возникающие до проведения Годового общего Собрания Акционеров и требующие Акционеров безотлагательного решения.

13.5. Дата проведения Общих собраний Акционеров, форма сообщения Акционерам об их проведении, перечень предоставляемых Акционерам материалов (информации) при подготовке к проведению Общих собраний Акционеров определяются Наблюдательным Советом Navoiyazot в соответствии с настоящим Уставом и законодательством.

Координацию всей работы по созыву и организации проведения Общих Собраний Акционеров Navoiyazot проводит руководитель исполнительного органа (председатель правления), который осуществляет указанную деятельность по согласованию с Наблюдательным Советом.

13.6. В обществе, все простые акции которого принадлежат одному акционеру, общие собрания акционеров не проводятся. Решения по вопросам, отнесенным Законом и уставом общества к компетенции общего собрания акционеров, принимаются таким акционером единолично и подлежат оформлению в письменной форме. При этом положения,

| | |
|---|---|
| muddatlarini belgilovchi qoidalar qo'llanilmaydi, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish muddatlariga oid qoidalar bundan mustasno. | определяющие порядок и сроки подготовки, созыва и проведения общего собрания акционеров, не применяются, за исключением положений, касающихся сроков проведения годового общего собрания акционеров. |
| **XIV. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHINING VAKOLAT DOIRASI** | **XIV. КОМПЕТЕНЦИЯ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ** |
| 14.1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:<br>14.1.1. mazkur Ustavning 14.4 va 23.2.20-bandlari qoidalarini hisobga olgan holda Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;<br>14.1.2. jamiyat Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;<br>14.1.3. jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, shuningdek unga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalani kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng tasdiqlash;<br>14.1.4. tanlov natijalari asosida ijroiya organi rahbari(boshqaruv raisi)ni saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;<br>14.1.5. Ijroiya organiga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash ,shuningdek ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalani kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng tasdiqlash;<br>14.1.6. jamiyatning yillik hisobotini, yillik biznes-rejasini, buxgalterlik balanslarini, foyda va zararlar hisobini tasdiqlash;<br>14.1.7. jamiyatning foyda va zararlarini taqsimlash;<br>14.1.8. kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilayotgan dividendlar taqsimotini tasdiqlash;<br>14.1.9. mazkur Ustavning 14.4 va 23.2.27-bandlari qoidalarini hisobga olgan holda Jamiyatning yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasi tasdiqlash;<br>14.1.10. jamiyat Ustav fondini kamaytirish;<br>14.1.11. mazkur Ustavning 14.4 va 23.2.20-bandlari qoidalarini hisobga olgan holda Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish;<br>14.1.12. jamiyatning o'z aksiyalarini olish;<br>14.1.13. jamiyatni qayta tashkil etish;<br>14.1.14. jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;<br>14.1.15. e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;<br>14.1.16. qonunchilikda belgilangan hollarda yirik bitimlarni tuzish;<br>14.1.17. qonunchilikda belgilangan hollarda tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlarni tuzish;<br>14.1.18. aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;<br>14.1.19. jamiyat Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan | 14.1. К компетенции Общего Собрания Акционеров относятся:<br>14.1.1. внесение изменений и дополнений в Устав Navoiyazot или утверждение Устава Navoiyazot в новой редакции, с учетом положений пунктов 14.4 и 23.2.20 настоящего Устава;<br>14.1.2. определение количественного состава Наблюдательного Совета, избрание его членов и досрочное прекращение их полномочий;<br>14.1.3. утверждение организационной структуры Navoiyazot, а также внесению в них изменения после одобрения наблюдательным советом хозяйственных обществ<br>14.1.4. избрание руководителя исполнительного органа (председателя правления) по результатам конкурсного отбора и досрочное прекращение его полномочий;<br>14.1.5. Утверждение после одобрения наблюдательным советом вопроса об установление выплачиваемых исполнительному органу Navoiyazot вознаграждений и/или компенсаций, а также их предельных размеров;<br>14.1.6. утверждение Годового Отчета, бухгалтерских балансов, прибылей и убытков Navoiyazot;<br>14.1.7. распределение прибылей и убытков Navoiyazot;<br>14.1.8. утверждение предлагаемого распределения дивидендов, рекомендованного Наблюдательным Советом;<br>14.1.9. утверждение годового бизнес-плана Navoiyazot с учетом положений пункта 14.4 и 23.2.27 настоящего Устава;<br>14.1.10. уменьшение Уставного Фонда Navoiyazot;<br>14.1.11. увеличение Уставного Фонда Navoiyazot, с учетом положений пункта 14.4 и 23.2.20 настоящего Устава;<br>14.1.12. приобретение собственных акций Navoiyazot;<br>14.1.13. реорганизация Navoiyazot;<br>14.1.14. ликвидация Navoiyazot, назначение ликвидатора (ликвидационной комиссии) и утверждение промежуточного и окончательного ликвидационного баланса;<br>14.1.15. утверждение предельного размера объявленных акций;<br>14.1.16. совершение крупных сделок, в случаях, установленных законодательством;<br>14.1.17. заключение сделок, в совершении которых заинтересованность, в случаях, установленных законодательством;<br>14.1.18. утверждение регламента Общего Собрания Акционеров;<br>14.1.19. заслушивание отчетов Наблюдательного Совета по вопросам, |

| | |
|---|---|
| masalalar yuzasidan, shu jumladan, Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish; | входящим в компетенцию, в том числе по соблюдению установленных законодательством требований по управлению Navoiyazot; |
| 14.1.20. jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 14.1.20. принятие решения о выпуске Navoiyazot корпоративных облигаций, в том числе конвертируемых в акции; |
| 14.1.21. mazkur Ustav va 14.4-band qoidalarini hisobga olgan holda qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 14.1.21. принятие решения о выпуске производных ценных бумаг с учетом положений пункта 14.4 и настоящего Устава; |
| 14.1.22. mazkur Ustavning 14.4 va 23.2.24 bandlari qoidalarini hisobga olgan holda jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 14.1.22. принятие решения о выкупе корпоративных облигаций Navoiyazot с учетом положений пункта 14.4 и 23.2.24 настоящего Устава; |
| 14.1.23. imtiyozli huquqni qo‘llamaslik to‘g‘risida “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish; | 14.1.23. принятие решения о неприменении преимущественного права, предусмотренного статьей 35 «Закона об акционерных обществах и защите прав акционеров»; |
| 14.1.24. mazkur Ustavning 14.4 va 23.2.21-bandlari qoidalarini hisobga olgan holda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash; | 14.1.24. определение цены размещения (выставления на организованные торги ценными бумагами) акций, с учетом положений пункта 14.4 и 23.2.21 настоящего Устава; |
| 14.1.25. aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish; | 14.1.25. дробление и консолидация акций; |
| 14.1.26. jamiyat sanoq komissiyasining son va shaxsiy tarkibini tasdiqlash; | 14.1.26. утверждение количественного и персонального состава счетной комиссии Navoiyazot; |
| 14.1.27. majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 14.1.27. принятие решения об определении аудиторской организации для проведения обязательной аудиторской проверки, о предельном размере оплаты её услуг и заключения (расторжения) с ней договора; |
| 14.1.28. qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal qilish. | 14.1.28. решение иных вопросов в соответствии с законодательством. |
| 14.2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas. | 14.2. Вопросы, отнесенные к компетенции Общего Собрания Акционеров, не могут быть переданы на решение исполнительному органу Navoiyazot. |
| 14.3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar jamiyatning kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, quyidagi masalalar bundan mustasno: | 14.3. Вопросы, отнесенные к компетенции Общего Собрания Акционеров общества, не могут быть переданы на решение Наблюдательному Совету, за исключением следующих вопросов: |
| 14.3.1. jamiyat ustav fondini(kapitalini) ko‘paytirish, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini ko‘paytirish hamda jamiyatning e’lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq aksiyalar miqdori bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish; | 14.3.1. увеличение Уставного Фонда Navoiyazot, а также внесение изменений и дополнений в Устав Navoiyazot, связанных с увеличением Уставного Фонда и уменьшением количества объявленных акций Navoiyazot; |
| 14.3.2. qonunchilikka muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash; | 14.3.2. определение цены размещения (выставления на организованные торги ценными бумагами) акций в соответствии законодательством; |
| 14.3.3. jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 14.3.3. принятие решения о выпуске Navoiyazot корпоративных облигаций, в том числе конвертируемых в акции; |
| 14.3.4. qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 14.3.4. принятие решения о выпуске производных ценных бумаг; |
| 14.3.5. jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 14.3.5. принятие решения о выкупе корпоративных облигаций Navoiyazot; |
| 14.3.6. jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), | 14.3.6. образование исполнительного органа Navoiyazot, избрание (назначение) его руководителя, досрочное прекращение его полномочий; |
| | 14.3.7. установление размеров, выплачиваемых исполнительному органу Navoiyazot вознаграждений и компенсаций; |
| | 14.3.8. утверждение годового бизнес-плана Navoiyazot. |
| | 14.4. В соответствии с пунктами 23.2.22 - 23.2.29 настоящего Устава, |

| | |
|---|---|
| rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;<br>14.3.7. jamiyatning ijroiya organiga toʻlanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;<br>14.3.8. jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.<br>14.4. Mazkur Ustavning 23.2.22-23.2.29-bandlariga muvofiq, Jamiyat Kuzatuv kengashi yuqoridagi 14.3.1 -14.3.8-bandlarda koʻrsatilgan masalalar boʻyicha mazkur Ustavda belgilangan tartibda qarorlar qabul qilishga haqli. Jamiyat Kuzatuv kengashi yuqoridagi 14.3.1 -14.3.8-bandlarda koʻrsatilgan masalalar boʻyicha qaror qabul qila olmasa, bu masala boʻyicha Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yigʻilishi qaror qabul qiladi. | Наблюдательному Совету Navoiyazot принадлежит право принятия решений по вопросам, указанным в пунктах 14.3.1 - 14.3.8 выше, в порядке, установленном настоящим Уставом. В случае если Наблюдательный Совет Navoiyazot не может принять решения по вопросу, указанному в пунктах 14.3.1 - 14.3.8 выше, решения по такому вопросу принимается Общим Собранием Акционеров Navoiyazot. |
| **XV. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIGʻILISHIDA ISHTIROK ETISH HUQUQI. AKSIYADORLAR VA ULARNING VAKILLARINI ROʻYXATGA OLISH** | **XV. ПРАВО НА УЧАСТИЕ В ОБЩИХ СОБРАНИЯХ РЕГИСТРАЦИЯ АКЦИОНЕРОВ И ИХ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ** |
| 15.1. Aksiyadorlarning umumiy yigʻilishida ishtirok etish huquqi aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi oʻtkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlarining reyestrida qayd etilgan aksiyadorlar ega boʻladi.<br>15.2. Aksiyadorlarining umumiy yigʻilishida ishtirok etishga haqli aksiyadorlar roʻyxatiga oʻzgartirishlar qonunchilikda belgilangan tartibda faqat ushbu roʻyxatga uni tuzish sanasida kiritilmagan shaxslarning huquqlarini tiklash uchun yoki uni tuzishda yoʻl qoʻyilgan xatoliklarni tuzatishda kiritilishi mumkin.<br>15.3. Jamiyat aksiyadorning talabiga koʻra aksiyadorga u aksiyadorlarning umumiy yigʻilishini oʻtkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlarining reyestriga kiritilganligi toʻgʻrisida axborot taqdim etishi shart.<br>15.4. Aksiyadorlarning umumiy yigʻilishini aksiyadorlar reyestriga kiritilgan, aksiyadorlarning umumiy yigʻilishida ishtirok etish huquqiga ega boʻlgan aksiyadorlar, ularning vakillari, auditorlik tashkiloti, Kuzatuv kengashi aʼzolari, jamiyat ijroiya organi rahbari (boshqaruv raisi) ishtirok etishga haqli.<br>Kuzatuv kengashi komissiyasiga saylanadigan nomzodlar muhokama etilganda koʻrib chiqilayotgan nomzodlar aksiyadorlarning umumiy yigʻilishiga taklif etilishi mumkin.<br>15.5. Aksiyadorlarning umumiy yigʻilishida ishtirok etish uchun aksiyadorlar umumiy yigʻilish oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi xabarnomada koʻrsatilgan joy va vaqt boʻyicha roʻyxatdan oʻtishlari lozim.<br>15.6. Yigʻilishda ishtirok etish uchun kelgan aksiyadorlar - jismoniy shaxslarni roʻyxatga olish pasport/identifikatsiya ID-kartasi yoki aksiyadorning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat taqdim etilganda, aksiyadorning ishonchli vakiliga nisbatan esa, shuningdek, notarial tarzda tasdiqlangan ishonchnoma taqdim etilganda amalga oshiriladi. Aksiyador istalgan paytda oʻzining umumiy | 15.1. Право на участие в Общем Собрании Акционеров Navoiyazot имеют акционеры, зафиксированные в реестре акционеров Navoiyazot, сформированном за 3 (три) рабочих дня до официально объявленной даты проведения Общего Собрания Акционеров.<br>15.2. Изменения в реестре Акционеров, имеющих право на участие в Общих Собраниях Акционеров, могут вноситься в установленном законодательством порядке только в случае восстановления нарушенных прав лиц, не включенных в указанный список на дату его составления, или исправления ошибок, допущенных при его составлении.<br>15.3. По требованию Акционера, Navoiyazot обязано предоставить ему информацию о включении его в реестр Акционеров, сформированный для проведения Общего Собрания Акционеров.<br>15.4. На общих собраниях Акционеров имеют право присутствовать Акционеры, внесенные в реестр Акционеров, имеющие право на участие в Общих Собраниях Акционеров, их представители, Аудиторская организация, члены Наблюдательного Совета, руководитель исполнительного органа (председатель правления) Navoiyazot.<br>При обсуждении кандидатур по избранию в Наблюдательный Совет и Ревизионную комиссию, рассматриваемые кандидатуры могут приглашаться на Общие Собрания Акционеров.<br>15.5. Для участия в Общих Собраниях Акционеров, Акционеры их представители должны пройти регистрацию по месту и времени, указанному в уведомлении о проведении Общего Собрания.<br>15.6. Регистрация Акционеров, физических лиц, прибывших для участия в собрании, осуществляется при предъявлении паспорта/идентификационной ID-карты или иного документа, удостоверяющего личность Акционера, а в отношении доверенного лица |

| | |
|---|---|
| yig'ilishdagi vakilini almashtirishga yoki unda shaxsan ishtirok etishga haqli.<br>15.7. Yuridik shaxs bo'lgan aksiyadorlar:<br>➢ yuridik shaxs rahbari hozir bo'lganda: lavozimga tayinlash to'g'risidagi xuquqiy hujjat hamda shunday yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida;<br>➢ aksiyadorning ishonchli shaxsi hozir bo'lganda: yuridik shaxs rahbarining imzosi qo'yilib, ushbu yuridik shaxs muhri bilan tasdiqlangan ishonchnoma asosida ro'yxatga olinadi.<br>15.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishni o'tkazish paytida, umumiy yig'ilishda ishtirok etishga haqli shaxslarning ro'yxati tuzilgan sanadan so'ng va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanaga qadar boshqa shaxs tasarrufiga o'tkazilganda, aksiyalarni o'tkazayotgan shaxs ularni qo'lga kirituvchiga ovoz berish uchun ishonchnoma berishi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aksiyalarni qo'lga kirituvchining ko'rsatmalariga binoan ovoz berishi shart.<br>15.9. Agar Jamiyatning aksiyasi bir nechta shaxsning umumiy ulushli mulkida bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish vakolatlari ularning hohishiga ko'ra umumiy ulushli mulk ishtirokchilaridan biri yoki ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.<br>15.10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kelgan aksiyadorlar, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishga haqli aksiyadorlar reyestriga muvofiq ro'yxatga olinadi.<br>15.11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishga haqli aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aksiyadorlarni ro'yxatga olish uchun qaydnoma ruyxati tuziladi. Qaydnoma ro'yxati taxlangan, raqamlangan, tikilgan va Jamiyat muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Qaydnoma ro'yxati Jamiyat arxivida, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga aloqador boshqa hujjatlar qatorida saqlanishi lozim. | Акционера также нотариально заверенной доверенности. Акционер правомочен в любое время заменить своего представителя на Общем Собрании или лично принять участие в нем.<br>15.7. Регистрация Акционеров юридических лиц, осуществляется:<br>➢ случае присутствия руководителя юридического лица: основании правового акта о назначении на должность и Документа, удостоверяющего личность руководителя такого юридического лица;<br>➢ в случае присутствия доверенного лица Акционера - юридического лица: на основании доверенности, заверенной подписью его руководителя с приложением печати этого юридического лица.<br>15.8. При передаче акций в момент проведения Общего Собрания, после даты составления списков лиц, имеющих право на участие в Общем Собрании, и до даты проведения Общего Собрания Акционеров, передающее лицо обязано выдать приобретателю доверенность на голосование или голосовать на Общем Собрании Акционеров в соответствии с указаниями приобретателя акций.<br>15.9. В случае если акция Navoiyazot находится в общей долевой собственности нескольких лиц, то правомочия по голосованию на Общем Собрании Акционеров осуществляются по их усмотрению одним из участников общей долевой собственности либо их общим представителем. Полномочия каждого из указанных лиц должны быть надлежащим образом оформлены.<br>15.10. Регистрация Акционеров, прибывших на Общее Собрание Акционеров, ведется в соответствии с реестром Акционеров, имеющих право на участие в Общем Собрании Акционеров.<br>15.11. Для регистрации Акционеров в соответствии с реестром Акционеров, имеющих право на участие в Общих Собраниях Акционеров, составляется регистрационный список. Регистрационный список должен быть сброшюрован, пронумерован, прошит и скреплен печатью Navoiyazot. Регистрационный список подлежит хранению в архиве Navoiyazot, наряду с другими документами, относящимися к проведению Общих Собраний Акционеров. |
| **XVI. AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY YIG'ILISHINI O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK** | **XVI. ПОДГОТОВКА К ПРОВЕДЕНИЮ ГОДОВОГО ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ** |
| 16.1. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi qarorni Jamiyat Kuzatuv kengashi qabul qilib, u:<br>16.1.1. aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, joy va vaqtni belgilaydi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 10 (o'n) kundan kam | 16.1. Решение о проведении Годового общего Собрания Акционеров принимает Наблюдательный Совет Navoiyazot, который:<br>16.1.1. определяет дату, место и время проведения Годового общего Собрания Акционеров. Дата проведения Общего Собрания Акционеров не может быть установлена менее чем за 10 (десять) и более чем за 30 (тридцать) дней со дня принятия решения о его проведении; |

| | |
|---|---|
| 21.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan reglamentga muvofiq olib boriladi.<br>21.2. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini olib borish Reglamentida ma’ruzalar va tanaffuslarning davomiyligi va tartibi, masalalarni muhokama qilish tartibi, masalalar va ma’ruzachilarga qo‘yiladigan talablar, ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e’lon qilish tartibi nazarda tutiladi. Agar umumiy yig‘ilish boshlanishida aksiyadorlarda reglament bo‘yicha qo‘shimcha takliflar yuzaga kelmasa, umumiy yig‘ilishni olib borish reglamentini tasdiqlash masalasi yuzasidan ovoz berish o‘tkazilmaydi. Agar aksiyadorlarda reglament bo‘yicha qo‘shimcha takliflar yuzaga kelsa, bunday masalalar bo‘yicha qo‘l ko‘tarib ovoz berish o‘tkaziladi. Sanoq komissiyasi ovozlarni hisoblaydi va qaror oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilingan hisoblanadi.<br>21.3. Yig‘ilish jarayonida yuzaga keladigan joriy masalalarni umumiy yig‘ilish raisi yakkabosh tartibda, muhokama etilayotgan masala bo‘yicha ajratilgan vaqt doirasida har bir ishtirokchi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ma’ruza qilishga haqli degan bosh tamoyildan kelib chiqib hal qiladi.<br>21.4. Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda ishtirok etishni istovchilar aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kotibiga muhokama etiladigan masalani ko‘rsatib yozma ariza topshiradi.<br>21.5. Kun tartibidagi barcha masalalar muhokama qilinib, aksiyadorlar ovoz berish natijalaridan xabardor qilinganidan so‘ng yig‘ilish raisi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini yopiq deb e’lon qiladi. | 21.1. Ведение Общего собрания Акционеров осуществляется в соответствии с Регламентом, утвержденным Общим Собранием Акционеров.<br>21.2. Регламент ведения Общего Собрания Акционеров предусматривает продолжительность и порядок выступлений и перерывов, порядок обсуждения вопросов, требования к вопросам и докладчикам, порядок осуществления голосования и объявления его результатов. Если в начале Общего Собрания у Акционеров не возникает дополнительных предложений по регламенту, то голосование по вопросу утверждения Регламента ведения Общего Собрания не производится. Если у Акционеров возникают дополнительные предложения по регламенту, то голосование по таким вопросам проводится путем поднятия рук. Счетная Комиссия производит подсчет голосов и решение считается принятым при наличии простого большинства голосов.<br>21.3. Текущие вопросы, возникающие по ходу собрания, Председатель Общего Собрания решает единолично, исходя из главного принципа: правом выступить на Общем Собрании Акционеров по обсуждаемому вопросу может воспользоваться каждый участник в пределах отведенного времени.<br>21.4. Желающие принять участие в обсуждении вопросов повестки дня подают Секретарю Общего Собрания Акционеров письменную заявку с указанием вопроса для обсуждения.<br>21.5. После обсуждения всех вопросов повестки дня и оповещения Акционеров о результатах голосования Председатель Собрания объявляет Общее Собрание Акционеров закрытым. |
| **XXII. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHINING BAYONNOMASI** | **XXII. ПРОТОКОЛ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ** |
| 22.1. Umumiy yig‘ilish kotibi:<br>22.1.1. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining olib borilishini yozib boradi;<br>22.1.2. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bayonnomasini rus yoki o‘zbek tilida ikki nusxada tuzadi. | 22.1. Секретарь Общего Собрания:<br>22.1.1. записывает ход ведения Общего Собрания Акционеров;<br>22.1.2. составляет Протокол Общего Собрания Акционеров на русском или узбекском языке в двух экземплярах. |

| | |
|---|---|
| 22.2. Umumiy yig'ilish kotibi, umumiy yig'ilish borishining stenografik hisobotini tuzish uchun stenografistlardan foydalanishi mumkin. Bunday stenografik hisobotdan yig'ilish kotibi umumiy yig'ilish bayonnomasini tayyorlash uchun foydalanadi.<br>22.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:<br>22.3.1. aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;<br>22.3.2. jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlari ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;<br>22.3.3. umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;<br>22.3.4. umumiy yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibining familiyasi, ismi-sharifi va lavozimi;<br>22.3.5. aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining kun tartibi;<br>22.3.6. ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar.<br>22.4. Umumiy yig'ilish bayonnomasi yig'ilish raisi va kotibi tomonidan imzolanadi. Yig'ilish raisi va/yoki kotibi aksiyadorlarning istalgan umumiy yig'ilishi bayonnomalarining nusxalarini va ulardan ko'chirmalarni tasdiqlashga haqli.<br>22.5. Umumiy yig'ilish bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan so'ng 10 (un) kundan kechiktirmasdan tuziladi.<br>22.6. Ovoz berish yakunlari bo'yicha sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi va sanoq komissiyasining a'zolari tomonidan imzolanadi. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnomaga aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'tkaziladigan yig'ilish kvorumining mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.<br>22.7. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi lozim.<br>22.8. Ovoz berish yakunlari bayonnomasi tuzilib, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasi imzolangandan so'ng qog'oz yoki elektron tashuvchidagi ovoz berish byulletenlari, umumiy yig'ilishni o'tkazish bilan bog'liq hujjatlar sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi va jamiyat arxiviga saqlash uchun topshiriladi. | 22.2. Секретарь Общего Собрания может использовать стенографистов для составления стенографического отчета о проведении Общего Собрания. Такой стенографический отчет используется Секретарем Собрания при подготовке Протокола Общего Собрания.<br>22.3. В протоколе Общего Собрания Акционеров указывается:<br>22.3.1. место и время проведения Общего Собрания Акционеров;<br>22.3.2. общее количество голосов, которыми обладают Акционеры владельцы голосующих акций Navoiyazot;<br>22.3.3. количество голосов, которыми обладают Акционеры, принимающие участие в собрании;<br>22.3.4. фамилия, имя, отчество и должность Председателя и Секретаря Общего собрания;<br>22.3.5. повестка дня Общего Собрания Акционеров;<br>22.3.6. основные положения выступлений, вопросы, поставленные на голосование, итоги голосования и принятые Общим Собранием Акционеров решения.<br>22.4. Протокол общего Собрания подписывается Председателем и Секретарем собрания. Председатель и/или Секретарь собрания имеют право заверять копии протокола любого Общего Собрания Акционеров и выписки из них.<br>22.5. Протокол Общего Собрания составляется не позднее 10 (десяти) дней после закрытия Общего Собрания Акционеров.<br>22.6. По итогам голосования Счетная комиссия составляет протокол об итогах голосования, подписываемый членами счетной комиссии. Протокол об итогах голосования включает сведения о наличии кворума общего собрания акционеров, в том числе проводимого дистанционно с использованием информационно-коммуникационных технологий.<br>22.7. Протокол об итогах голосования подлежит приобщению к Протоколу Общего Собрания Акционеров.<br>22.8. После составления Протокола об итогах голосования и подписания протокола Общего Собрания Акционеров бюллетени для голосования бумажном виде или на электронном носителе, и документы, связанные проведением Общего Собрания, опечатываются счетной комиссией и сдаются в архив общества на хранение. |
| **XXIII. JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI** | **XXIII. НАБЛЮДАТЕЛЬНЫЙ СОВЕТ ОБЩЕСТВА** |
| 23.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonunchilik va mazkur Ustav bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.<br>23.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi: | 23.1. Наблюдательный Совет осуществляет общее руководство деятельностью Navoiyazot, за исключением решения вопросов, отнесенных законодательством и настоящим Уставом к исключительной компетенции Общего Собрания Акционеров. |

| | |
|---|---|
| 23.2.1. jamiyatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;<br>23.2.2. aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;<br>23.2.3. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibini tayyorlash;<br>23.2.4. aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;<br>23.2.5. aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;<br>23.2.6. amaldagi qonunchilik va mazkur Ustavda nazarda tutilgan masalalarni, jumladan, Jamiyat Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda Jamiyat Ustavini yangi tahrirda tasdiqlash masalalarini aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi hal qilishi uchun kiritish;<br>23.2.7. mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;<br>23.2.8. jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishida tasdiqlash uchun Jamiyatning sanoq komissiyasini miqdoriy va shaxsiy tarkibi bo‘yicha takliflarni tasdiqlash;<br>23.2.9. korporativ maslahatchini tayinlash;<br>23.2.10. ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, ichki audit xizmati xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish, shuningdek har chorakda ichki va tashqi audit xizmatini ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risidagi hisobotlarini eshitib borish.<br>23.2.11. Xatarlarni boshqarish siyosati va xatarlarni boshqarish va ichki nazorat tizimining o'zaro ta'sir siyosatini va xatarlarni boshqarish va ichki nazorat tizimidagi asosiy hujjatlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash.<br>23.2.12. Xatarlarni boshqarish va ichki nazorat tizimlarining ishlashini, shuningdek ularning korxona strategiyasi, maqsadlari va faoliyati bilan integratsiyasini nazorat qilish.<br>23.2.13. dividend miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;<br>23.2.14. jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;<br>23.2.15. jamiyatning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini tashkil etish va ularni tugatish;<br>23.2.16. jamiyatning filiallarini tashkil etish/tugatish va vakolatxonalarini ochish/yopish;<br>23.2.17. amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish; | 23.2. К компетенции Наблюдательного Совета Navoiyazot относится:<br>23.2.1. определение приоритетных направлений деятельности Navoiyazot;<br>23.2.2. созыв годовых и внеочередных Общих Собраний Акционеров, за исключением случаев, предусмотренных законодательством;<br>23.2.3. подготовка повестки дня Общего Собрания Акционеров Navoiyazot;<br>23.2.4. определение даты, времени и места проведения Общего Собрания Акционеров Navoiyazot;<br>23.2.5. определение даты формирования реестра Акционеров Navoiyazot для оповещения о проведении Общего Собрания Акционеров;<br>23.2.6. вынос решение Общего Собрания Акционеров вопросов, предусмотренных действующим законодательством и настоящим Уставом, включая вопросы о внесении изменений и дополнений в Устав Navoiyazot и утверждение Устава Navoiyazot в новой редакции;<br>23.2.7. организация установления рыночной стоимости имущества Navoiyazot;<br>23.2.8. утверждение предложений по количественному и персональному составу Счетной Комиссии Navoiyazot для утверждения на Общем Собрании Акционеров Navoiyazot;<br>23.2.9. назначение корпоративного консультанта Navoiyazot;<br>23.2.10. создание службы внутреннего аудита и назначение ее работников, проведение аттестации работников работников службы внутреннего аудита, а также ежеквартальное заслушивание службы внутренного и внешнего аудита об эффективности системы внутреннего контроля.<br>23.2.11. Рассмотрение и утверждение Политики управления рисками и Политики взаимодействия системы управления рисками и внутреннего контроля и ключевых документов по системе управления рисками и внутреннего контроля.<br>23.2.12. Надзор за функционированием систем управления рисками и внутреннего контроля, а также за их интеграцией со стратегией, целями и деятельностью Предприятия.<br>23.2.13. дача рекомендаций по размеру дивиденда, форме и порядку его выплаты;<br>23.2.14. использование Резервного Фонда и других фондов Navoiyazot;<br>23.2.15. создание/ликвидация дочерних и зависимых хозяйственных обществ;<br>23.2.16. создание/ликвидация филиалов и открытие/закрытие представительств общества;<br>23.2.17. принятие решений по заключению крупных сделок в случаях, |

| | |
|---|---|
| 23.2.18. amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;<br>23.2.19. jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;<br>23.2.20. jamiyat biznes-rejasi bajarilishi to'g'risida Jamiyat ijroiya organi rahbari (boshqaruvi raisi)ning hisobotini har chorakda tinglash va tasdiqlash;<br>23.2.21. jamiyatning ustav fondini ko'paytirish, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini ko'paytirish va e'lon qilingan kamaytirilgan aksiyalar bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;<br>23.2.22. qonunchilikka muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli kog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;<br>23.2.23. jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;<br>23.2.24. qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;<br>23.2.25. jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;<br>23.2.26. jamiyat ijroiya organini saylash (uning rahbaridan tashqari) (tayinlash), vakolatlarini muddatdan ilgari tugatish;<br>23.2.27. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, shuningdek unga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalani dastlabki tarzda ma'qullash;<br>23.2.28. Ijroiya organiga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini, shuningdek ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalani dastlabki tarzda ma'qullash;<br>23.2.29. jamiyat yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim.<br>23.2.30. auditorlik tekshiruvini ўtkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga tўlanadigan eng kўp mikdori belgilash va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor қilish) tўғrisida қaror қabul қilish;<br>23.2.31. aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va qonunchilikda belgilangan chegaralarda ma'lumotlarni aksiyadorlik jamiyatining korporativ veb-saytiga joylashtirish orqali xayriya (homiylik) yoki tekin yordam ko'rsatish (olish) va qarorlar qabul qilish shartlari tartibini belgilash; | предусмотренных действующим законодательством;<br>23.2.18. принятие решений по заключению сделок с аффилированными лицами в случаях, предусмотренных действующим законодательством;<br>23.2.19. заключение сделок, связанных с участием общества в коммерческих и некоммерческих организациях, в порядке, установленном законодательством;<br>23.2.20. ежеквартальное заслушивание и утверждение отчета руководителя исполнительного органа (председателя правления) Navoiyazot о выполнении бизнес-плана Navoiyazot;<br>23.2.21. увеличение Уставного фонда Navoiyazot, а также внесение изменений и дополнений в Устав Navoiyazot, связанных с увеличением Уставного Фонда и уменьшением количества объявленных акций Navoiyazot;<br>23.2.22. определение цены размещения (выставления на организованные торги ценными бумагами) акций в соответствии законодательством;<br>23.2.23. принятие решения о выпуске Navoiyazot корпоративных облигаций, в том числе конвертируемых в акции;<br>23.2.24. принятие решения о выпуске производных ценных бумаг;<br>23.2.25. принятие решения о выкупе корпоративных облигаций Navoiyazot;<br>23.2.26. избрание (назначение) членов правления общества (кроме его председателя), досрочное прекращение их полномочий;<br>23.2.27. Предварительное одобрение организационной структуры общества, а также вопроса о внесении в нее изменений;<br>23.2.28. Предварительное одобрение вопроса об размере выплачиваемого вознаграждения исполнительному органу и его максимального размера, а также о внесении в них изменений;<br>23.2.29. утверждение годового бизнес-плана Navoiyazot. При этом бизнес- план Navoiyazot на следующий год должен быть одобрен на заседании Наблюдательного Совета Navoiyazot не позднее 1 декабря текущего года;<br>23.2.30. принятие решения о проведении аудиторской проверки (кроме обязательной аудиторской проверки), об определении аудиторской организации, предельном размере оплаты ее услуг и заключении (расторжении) с ней договора<br>23.2.31. определение порядка, условий оказания (получения) и принятия решений о благотворительной (спонсорской) или безвозмездной помощи только в пределах, установленных общим собранием акционеров и законодательством, с последующем размещением данного порядка на корпоративном веб-сайте акционерного общества; |

| | |
|---|---|
| 23.2.32. mazkur Ustav va amaldagi qonunchilik bilan Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish;<br>23.2.33. yangi ko'chmas mulkni sotib olish yoki qurish, tadbirkorlik sub'ektlarining ustav kapitalidagi ulushlarini olish va asosiy faoliyat turiga mos keladigan qo'shimcha faoliyat turlarini amalga oshirish to'g'risidagi qapop qabul qilish;<br>23.2.34. jamiyat aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarning mulkini begonalashtirish, sotish shakllari va mexanizmlari, ustav kapitaliga investitsiyalar kiritish to'g'risida uchinchi shaxslar tomonidan shartnomalar (bitimlar, shartnomalar, memorandumlar va boshqalar) tuzish to'g'risida qarorlar qabul qilish;<br>23.2.35. jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin.<br>23.3. Kuzatuv kengashi Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishlarida korporativ boshqaruvning qonunchilikda belgilangan me'yorlariga rioya etilishi yuzasidan hisob beradi.<br>23.4. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.<br>23.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va/yoki kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'rni qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdorlari Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. | 23.2.32. принятие решения о приобретении или строительстве новых объектов недвижимости, приобретении долей В уставных капиталах хозяйственных обществ осуществлении дополнительной деятельности, соответствующей основной деятельности;<br>23.2.33. Принятие решений по заключению соглашений (сделки, договора, меморандумы и др) по отчуждению, формам и механизмам реализации имущества, внесению инвестиций в уставный капитал Navoiyazot и предприятий в его составе третьими лицами;<br>23.2.34. решение других вопросов, отнесенных к компетенции Наблюдательного Совета настоящим Уставом и действующим законодательством.<br>23.2.35. доступ К любым Документам, касающимся деятельности исполнительного органа Navoiyazot, и получение их от исполнительного органа Navoiyazot для исполнения возложенных на Наблюдательный Совет Navoiyazot обязанностей. Полученные документы могут использоваться Наблюдательным Советом Navoiyazot и его членами исключительно в служебных целях;<br>23.3. Наблюдательный Совет отчитывается на ежегодных общих Собраниях Акционеров Navoiyazot по соблюдению установленных законодательством норм корпоративного управления.<br>23.4. Вопросы, отнесенные к компетенции Наблюдательного Совета, не могут быть переданы на решение исполнительному органу.<br>23.5. По решению Общего Собрания Акционеров членам Наблюдательного Совета Navoiyazot за период исполнения ими своих обязанностей могут выплачиваться вознаграждение и/или компенсироваться расходы, связанные с исполнением функций членов Наблюдательного Совета. Размеры таких вознаграждений и компенсаций устанавливаются решением общего Собрания Акционеров Navoiyazot. |
| **XXIV. JAMIYAT KUZATUV KENGASHINING A'ZOLARINI SAYLASH** | **XXIV. ИЗБРАНИЕ ЧЛЕНОВ НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА ОБЩЕСТВА** |
| 24.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi 7 (yetti) a'zodan iborat, ulardan 2 tasi mustaqil a'zolardir. Kuzatuv kengashining miqdoriy tarkibi Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga asosan o'zgartirilishi mumkin.<br>24.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari qonunchilikda va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi.<br>24.3. Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslar cheklanmagan marta qayta saylanishi mumkin, mustaqil a'zolar bundan | 24.1. Наблюдательный Совет общества состоит из 7 (семи) членов, из которых 2 независимые члены. Количественный состав Наблюдательного Совета может быть изменен по решению общего собрания Акционеров Navoiyazot.<br>24.2. Члены Наблюдательного Совета Navoiyazot избираются Общим Собранием Акционеров в порядке, предусмотренном законодательством и Уставом Navoiyazot, сроком на три года.<br>24.3. Лица, избранные в состав членов Наблюдательного Совета |

| | |
|---|---|
| mustasno. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan Jamiyat Kuzatuv kengashining har qaysi a'zosi (a'zolari) vakolatlari muddatdan oldin tugatilishi mumkin.<br>24.4. Ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.<br>24.5. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilishga ta'sir qilganlik uchun mukofotni bevosita yoki bilvosita olishga haqli emas.<br>24.6. Kuzatuv kengashi a'zolari shaxsiy boylik orttirish maqsadida Jamiyat imkoniyatlaridan (mulkiy yoki nomulkiy xuquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, jamiyat faoliyati va rejalari to'g'risida axborotdan) foydalanishga haqli emas.<br>24.7. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo'yilishi mumkin.<br>24.8. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan mustaqil a'zolar va boshqa a'zolar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan kuzatuv kengashi a'zosi mazkur yig'ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak. | Navoiyazot, могут переизбираться неограниченно, за исключением независимых членов. По решению Общего Собрания Акционеров полномочия любого члена (всех членов) Наблюдательного Совета Navoiyazot могут быть прекращены досрочно.<br>24.4. Членом Наблюдательного Совета не могут быть лица, работающие в Navoiyazot по трудовому договору (контракту).<br>24.5. Члены Наблюдательного Совета не имеют права прямо или косвенно получать вознаграждение за оказание влияния на принятие тех или иных решений Наблюдательным Советом.<br>24.6. Члены Наблюдательного Совета не имеют права использовать возможности Navoiyazot (имущественные или неимущественные права, возможности в сфере хозяйственной деятельности, информацию о деятельности и планах общества) в целях личного обогащения.<br>24.7. Общее Собрание Акционеров Navoiyazot может устанавливать дополнительные требования к лицам, избираемым в состав Наблюдательного Совета Navoiyazot.<br>24.8. Избрание членов Наблюдательного Совета Navoiyazot осуществляются кумулятивным голосованием. При кумулятивном голосовании число голосов, принадлежащих каждому Акционеру, умножается отдельно на число независимых и других членов наблюдательного совета, которые должны быть избраны в наблюдательный совет общества, и акционер вправе отдать полученные таким образом голоса полностью за одного кандидата или распределить их между двумя и более кандидатами. Избранными в состав Наблюдательного Совета считаются кандидаты, набравшие наибольшее число голосов. В протоколе общего собрания акционеров должно быть указано, какого акционера представляет избранный на общем собрании акционеров член наблюдательного совета или какой член наблюдательного совета является независимым |
| **XXV. JAMIYAT KUZATUV KENGASHINING RAISI VA KOTIBI** | **XXV. ПРЕДСЕДАТЕЛЬ И СЕКРЕТАРЬ НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА ОБЩЕСТВА** |
| 25.1. Kuzatuv kengashi a'zolari saylangan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilganidan so'ng o'tkaziladigan kuzatuv kengashining birinchi majlisida ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan jamiyat kuzatuv kengashining raisini saylaydilar. | 25.1. На первом заседании Наблюдательного Совета, проводимом после проведения Общего Собрания Акционеров, на котором были избраны члены Наблюдательного Совета, члены Наблюдательного Совета избирают из своего состава Председателя простым большинством голосов присутствующих и голосующих на заседании членов Наблюдательного |

| | |
|---|---|
| 25.2. Jamiyatning kuzatuv kengashi o‘z raisini kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.<br>25.3. Kuzatuv kengashi raisi:<br>25.3.1. kuzatuv kengashi ishini tashkillashtiradi;<br>25.3.2. kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;<br>25.3.3. kuzatuv kengashi majlislarida bayonnoma yuritilishini tashkillashtiradi;<br>25.3.4. jamiyat nomidan ijro etuvchi organ rahbarini (boshqaruv raisini) yollash to‘g‘risida mehnat shartnomasini tuzadi, agar kuzatuv kengashi bunday vakolatlarni boshqa shaxsga bermagan bo‘lsa.<br>25.4. Kuzatuv kengashi qaror qabul qilishda Kuzatuv kengashi a’zolarining ovozlari teng bo‘lgan taqdirda, jamiyat Kuzatuv kengashi raisi hal qiluvchi ovoz huquqiga ega.<br>25.5. Kuzatuv kengashi raisi bo‘lmagan taqdirda, uning vazifalarini kuzatuv kengashi a’zolaridan biri bajaradi. | Совета.<br>25.2. Наблюдательный Совет Navoiyazot вправе переизбрать своего Председателя большинством голосов присутствующих на заседании из числа членов Наблюдательного Совета.<br>25.3. Председатель Наблюдательного Совета;<br>25.3.1. организует работу Наблюдательного Совета;<br>25.3.2. созывает заседания Наблюдательного Совета и председательствует на них;<br>25.3.3. организует на заседаниях Наблюдательного Совета ведение протокола заседания Наблюдательного Совета;<br>25.3.4. заключает от имени Navoiyazot трудовые договоры о найме руководителя исполнительного органа (председателя правления), если Наблюдательный Совет не предоставит такие полномочия другому лицу.<br>25.4. Председатель Наблюдательного Совета Navoiyazot имеет право решающего голоса при принятии Наблюдательным Советом решения в случае равенства голосов членов Наблюдательного Совета.<br>25.5. В случае отсутствия Председателя Наблюдательного Совета его функции осуществляет один из членов Наблюдательного Совета. |
| **XXVI. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI MAJLISLARI** | **XXVI. ЗАСЕДАНИЯ НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА ОБЩЕСТВА** |
| 26.1. Kuzatuv kengashi majlislari zaruriyatga qarab o‘tkaziladi.<br>26.2. Kuzatuv kengashi majlislari Kuzatuv kengashi raisi tomonidan chaqiriladi:<br>26.2.1. o‘z tashabbusiga ko‘ra;<br>26.2.2. kuzatuv kengashi a’zosining talabiga ko‘ra;<br>26.2.3. jamiyat ijroiya organi rahbari (boshqaruv raisi)ning talabiga ko‘ra.<br>26.3. Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish tashabbuskori Kuzatuv kengashi a’zolariga xabarnoma yuborish yo‘li bilan ularni majlis chaqirilishi to‘g‘risida xabardor qilishi kerak.<br>26.4. Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish to‘g‘risida xabarnoma quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:<br>26.4.1. kuzatuv kengashi majlisini o‘tkazish sanasi, vaqti va joyi;<br>26.4.2. majlisning kun tartibi.<br>26.5. Kuzatuv kengashining har bir a’zosi bunday xabarnoma olgan kundan so‘ng 10 (o‘n) kun ichida Kuzatuv kengashi raisiga kun tartibiga kiritish uchun qo‘shimcha savollar ro‘yxatini taqdim qilishga haqli.<br>26.6. Kuzatuv kengashi raisi barcha tushgan takliflarni (agar ular bo‘lsa) ko‘rib chiqadi va zarur bo‘lgan taqdirda, majlisning yakuniy kun tartibini tayyorlaydi va uni ijro etuvchi organga Kuzatuv kengashi a’zolariga berish uchun | 26.1. Заседания Наблюдательного Совета проводятся по мере необходимости.<br>26.2. Заседание Наблюдательного Совета созывается Председателем Наблюдательного Совета:<br>26.2.1. по его собственной инициативе;<br>26.2.2. по требованию члена Наблюдательного Совета;<br>26.2.3. по требованию руководителя исполнительного органа (председателя правления) Navoiyazot.<br>26.3. Инициатор созыва заседания Наблюдательного Совета должен уведомлять членов Наблюдательного Совета о созыве заседания путем направления уведомления.<br>26.4. Уведомление о созыве заседания Наблюдательного Совета должно содержать:<br>26.4.1. Дату, время и место проведения заседания Наблюдательного Совета;<br>26.4.2. Повестку дня заседания.<br>26.5. Каждый член Наблюдательного Совета имеет право в течение 10 (десяти) календарных дней после получения такого уведомления представить Председателю Наблюдательного Совета перечень дополнительных вопросов для включения в повестку дня.<br>26.6. Председатель Наблюдательного Совета рассматривает все |

| | |
|---|---|
| yuboradi.<br>26.7. Kuzatuv kengashi a’zosi tomonidan kiritilgan masala Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibiga kiritilishi lozim, quyidagi hollardan tashqari:<br>26.7.1. kuzatuv kengashi a’zosi mazkur Ustavning 26.5-bandida belgilangan muddatga rioya qilmaganda;<br>26.7.2. takliflar qonunchilik va/yoki jamiyat Ustavi talablariga muvofiq bo‘lmagan taqdirda.<br>26.8. Kuzatuv kengashi majlisida faqat kun tartibida ko‘rsatilgan masalalar ko‘rib chiqiladi. Biroq, Jamiyat kuzatuv kengashining barcha hozir bo‘lgan a’zolarining bir ovozdan qabul qilingan qaroriga asosan Kuzatuv kengashi qo‘shimcha savollarni kun tartibiga kiritishi va ularni ko‘rib chiqishi mumkin.<br>26.9. Kuzatuv kengashi majlislari videokonferensiya aloqa tizimi yoki majlisda shaxsan ishtirok etish orqali o‘tkazilishi mumkin. Kuzatuv kengashining har qaysi a’zosi, agar u yig‘ilishda jismonan ishtirok eta olmasa, videokonferensiya aloqa tizimi orqali ishtirok etishi va ovoz berishi mumkin. Shu bilan birga, ijro etuvchi organ bunday so‘rov kelib tushganda ushbu aloqani tashkillashtirish uchun barcha kerakli choralarni ko‘rishi kerak. Agar majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashining har qaysi a’zosi bilan videokonferensiya aloqa uzilib qolsa, u qayta tiklanguga qadar yig‘ilish to‘xtatilib turiladi.<br>26.10. Kuzatuv kengashi qarorlari sirtdan ovoz berish (so‘rov yo‘li) orqali Kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. Bunday qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan yozma rezolyusiya bilan rasmiylashtiriladi. Bunday yozma rezolyusiyalarga mazkur Ustavning Kuzatuv kengashi majlisi kvorumi va ovoz berish tartibiga taalluqli qoidalari qo‘llaniladi. Yozma shaklda rasmiylashtirilgan va Kuzatuv kengashining shu paytda xaqiqiy bo‘lgan a’zolari tomonidan imzolangan yozma rezolyusiya (qabul qilingan qarorni so‘zsiz ma’qullaydigan) Kuzatuv kengashi majlisida tegishli tarzda qabul qilingan rezolyusiya kabi kuchga ega bo‘ladi. Bunday yozma rezolyusiya adekvat shakldagi bitta yoki bir nechta hujjatlarda bo‘lishi mumkin va ulardan har biri Kuzatuv kengashining bitta yoki undan ko‘proq a’zolari tomonidan imzolanadi.<br>26.11. Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o‘tkazilganidan so‘ng 10 (o‘n) kundan kechiktirmay tuziladi.<br>26.12. Majlisi bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:<br>26.12.1. majlis o‘tkazilgan sana, vaqt va joy; | поступившие предложения (если таковые поступают), и в случае необходимости, подготавливает окончательную повестку дня заседания M направляет исполнительному органу для направления её членам Наблюдательного Совета.<br>26.7. Вопрос, внесенный членом Наблюдательного Совета, подлежит включению в повестку дня заседания Наблюдательного Совета за исключением случаев, когда:<br>26.7.1. членом Наблюдательного Совета не соблюден срок, установленный в пункте 26.5 настоящего Устава;<br>26.7.2. предложения не соответствуют требованиям законодательства и/или Устава Navoiyazot.<br>26.8. На заседании Наблюдательного Совета рассматриваются вопросы, которые указаны в повестке дня. Однако, по единогласному решению всех из числа присутствующих членов Наблюдательного Совета Navoiyazot, Наблюдательный Совет может включить в повестку дня и рассмотреть дополнительные вопросы.<br>26.9. Заседания Наблюдательного Совета могут проводиться по системе видеоконференцсвязи или личного участия заседании. Любой член Наблюдательного Совета может принять участие и голосовать по системе видеоконференцсвязи, если он не в состоянии физически присутствовать на заседании. При этом, Исполнительный орган должен принять все необходимые меры для организации такой связи при поступлении такой просьбы. Если видеоконференцсвязь любым членом Наблюдательного Совета, принимающим участие в заседании, прерывается, то заседание прерывается до её восстановления.<br>26.10. Решения Наблюдательного Совета могут быть приняты заочным голосованием (опросным путем) всеми членами Наблюдательного Совета единогласно. Такие решения Наблюдательного Совета оформляются письменной резолюцией. К таким письменным резолюциям применяются положения настоящего Устава, касательно кворума и порядка голосования на заседании Наблюдательного Совета. Оформленная в письменном виде и подписанная действительными на данный момент членами Наблюдательного Совета письменная резолюция (однозначно одобряющая принятое решение) имеет такую же силу, как и резолюция, принятая надлежащим образом на заседании Наблюдательного Совета. Такая письменная резолюция может содержаться в одном или нескольких документах адекватной формы, каждый из которых подписан одним или более членами Наблюдательного Совета.<br>26.11. На заседании Наблюдательного Совета ведется протокол. Протокол заседания Наблюдательного Совета составляется не позднее 10 (десяти) дней с даты его проведения. |

| | |
|---|---|
| 26.12.2. majlisda hozir boʻlgan shaxslar, shu jumladan masofadan turib axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda;<br>26.12.3. majlisning kun tartibi;<br>26.12.4. ovoz berishga qoʻyilgan masalalar, ular yuzasidan oʻtkazilgan ovoz berish yakunlari;<br>26.12.5. qabul qilingan qarorlar.<br>26.13. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi toʻgʻri rasmiylashtirilishi uchun javobgar boʻladi.<br>26.14. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yigʻilishini chaqirish toʻgʻrisida qaror qabul qilgan taqdirda, mazkur qaror haqidagi axborot jamiyatning ijroiya organiga kuzatuv kengashining majlisi oʻtkaziladigan kuni topshiriladi. | 26.12. В протоколе заседания Наблюдательного Совета указываются:<br>26.12.1. дата, место и время его проведения;<br>26.12.2 лица, присутствующие на заседании, в том числе дистанционно с использованием информационно-коммуникационных технологий;<br>26.12.3. повестка дня заседания;<br>26.12.4. вопросы, поставленные на голосование, итоги голосования по ним;<br>26.12.5. принятые решения.<br>26.13. Протокол заседания Наблюдательного Совета Navoiyazot подписывается участвующими в заседании членами Наблюдательного Совета Navoiyazot, которые несут ответственность за правильность оформления протокола.<br>26.14. Протокол заседания Наблюдательного Совета Navoiyazot передается для исполнения исполнительному органу Navoiyazot в день его подписания. В случае принятия Наблюдательным Советом решения о созыве Общего Собрания Акционеров информация данном решении передается исполнительному органу Navoiyazot в день проведения заседания Наблюдательного Совета. |
| **XXVII. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI MAJLISINING KVORUMI VA QARORLARNI QABUL QILISH** | **XXVII. КВОРУМ ЗАСЕДАНИЯ НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА ОБЩЕСТВА И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ** |
| 27.1. Kuzatuv kengashining majlisini oʻtkazish uchun kvorum jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarning 75 (yetmish besh) foizdan kam boʻlmasligi kerak.<br>27.2. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 75% (yetmish besh foizdan) kam boʻlib qolgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun navbatdan tashqari aksiyadorlarning umumiy yigʻilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yigʻilishini chaqirish toʻgʻrisida qaror qabul qilishga, shuningdek jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.<br>27.3. Kuzatuv kengashi majlislarida qarorlar Kuzatuv kengashining majlisda ishtirok etuvchi a'zolarining koʻpchilik ovozi bilan qabul qilinadi, Kuzatuv kengashi a'zolarining bir ovozdan qaror qabul qilinishi talab qilinadigan 23.2.-bandda koʻrsatilgan qarorlar bundan mustasno. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega boʻladi.<br>27.4. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng boʻlgan holatlarda hal qiluvchi ovoz huquqiga ega. | 27.1. Кворум для проведения заседания Наблюдательного Совета составляет 75 (семьдесят пять) процентов от числа избранных членов Наблюдательного Совета.<br>27.2. В случае, когда количество членов Наблюдательного Совета становится менее 75% (семидесяти пяти процентов), Navoiyazot обязано созвать Внеочередное Общее Собрание Акционеров для избрания нового состава Наблюдательного Совета. Оставшиеся члены Наблюдательного Совета вправе принимать решение только о созыве такого Внеочередного общего Собрания Акционеров, а также в случае досрочного прекращения полномочий руководителя исполнительного органа назначить временно исполняющего его обязанности.<br>27.3. Решения на заседании Наблюдательного Совета принимаются большинством голосов членов Наблюдательного Совета, присутствующих и голосующих на заседании, за исключением решений, указанных в пункте 23.2., когда требуется единогласное решение членов Наблюдательного Совета. При решении вопросов на заседании Наблюдательного Совета каждый член Наблюдательного Совета имеет право на один голос.<br>27.4. Председатель Наблюдательного Совета Navoiyazot имеет право решающего голоса при принятии Наблюдательным Советом решения в случае равенства голосов членов Наблюдательного Совета. |

| | |
|---|---|
| 27.5. Kuzatuv kengashi a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishga yo'l qo'yilmaydi. | 27.5. Передача голоса одним членом Наблюдательного Совета другому члену Наблюдательного Совета не допускается. |
| **XXVIII. JAMIYATNING IJRO ETUVCHI ORGANI** | **XXVIII. ИСПОЛНИТЕЛЬНЫЙ ОРГАН ОБЩЕСТВА** |
| 28.1. Jamiyat joriy faoliyatiga rahbarlik qilish jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.<br>28.2. Jamiyat boshqaruvi 7 (yetti) a'zodan iborat.<br>28.3. Boshqaruv kengashi boshqaruv raisi va uning birinchi o'rinbosarlari va boshqaruv raisi o'rinbosarlaridan iborat bo'lib, ular Kuzatuv kengashi tomonidan (boshqaruv raisidan tashqari) qonun hujjatlarida va Navoiyazot Ustavida ko'zda tutilgan tartibda uch yil muddatga saylanadi, agar ular tanlov natijalari bo'yicha yangi saylansa va ular amalga oshiradigan funksiyalarga qarab ishlab chiqarish, marketing, moliya, xodimlar, loyihalar, rejalashtirish va shu kabi sohalarda malakaga egaligiga qarab tayinlanadi, shunda boshqaruv raisi etib tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs ketma-ket ikki muddatdan ortiq boshqaruv raisi bo'lishi mumkin emas.<br>28.4. Jamiyat ijroiya organi va uning rahbarining vakolatlariga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.<br>28.5. Jamiyatning ijroiya organi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.<br>28.6. Jamiyat boshqaruvi raisi quyidagi huquqlarga ega:<br>28.6.1. jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;<br>28.6.2. jamiyatni boshqarish va o'z vakolatlari doirasida mustaqil qarorlarni qabul qilish;<br>28.6.3. jamiyat kundalik moliyaviy-xo'jalik faoliyati, ishlab chiqarish, tashkiliy moliyaviy ishlarni boshqarish;<br>28.6.4. kontraktlar va shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalarini tuzish;<br>28.6.5. jamiyat xodimlaridan mehnat shartnoma, ichki mehnat tartibi qoidalari va jamiyatda amalda bo'lgan boshqa qoidalar va nizomlar bilan shartlangan ishni lozim darajada bajarishlarini talab qilish;<br>28.6.6. jamiyat xodimlari bilan mehnat va boshqa shartnomalarni tuzish va | 28.1. Руководство текущей деятельностью Navoiyazot осуществляется правлением общества.<br>28.2. Правление общества состоит из 7 (семи) членов.<br>28.3. Правление состоит из Председателя, его первых заместителей и заместителей председателя, которые избираются Наблюдательным советом (кроме председателя Правления) в порядке, предусмотренном законодательством и Уставом Navoiyazot, сроком на три года, а в случае их нового избрания по результатам конкурсного отбора и в зависимости от осуществляемых ими функций должны иметь квалификацию в сфере производства, маркетинга, финансов, персонала, проектов, планирования и т.д. лицо, назначенное (переназначенное) Председателем правления не может быть Председателем правления более двух сроков подряд.<br>28.4. К компетенции исполнительного органа Navoiyazot и руководителя относятся все вопросы руководства текущей деятельностью Navoiyazot, за исключением вопросов, отнесенных к компетенции общего собрания акционеров или наблюдательного совета Navoiyazot.<br>28.5. Исполнительный орган Navoiyazot организует выполнение решений общего собрания акционеров и наблюдательного совета Navoiyazot.<br>28.6. Председатель правления общества имеет право:<br>28.6.1. без доверенности действовать от имени Navoiyazot, в том числе представлять его интересы во взаимоотношениях с другими организациями и органами, в том числе государственными, совершать сделки от имени Navoiyazot, назначать руководителя филиала или представительства Navoiyazot, утверждать штаты, издавать приказы и давать указания, обязательные для исполнения всеми работниками Navoiyazot;<br>28.6.2. управлять Navoiyazot и принимать самостоятельные решения в пределах своих полномочий;<br>28.6.3. управлять производственными, организационными, финансовыми коммерческими аспектами повседневной хозяйственной деятельности Navoiyazot;<br>28.6.4. заключать контракты и договоры, в том числе трудовые;<br>28.6.5. требовать от работников Navoiyazot надлежащего выполнения работы, обусловленной трудовым договором, правилами внутреннего трудового распорядка и иными действующими в Navoiyazot правилами, и положениями;<br>28.6.6. делегировать право на заключение и прекращение трудовых и |

| | |
|---|---|
| tugatish huquqini boshqaga berish; | иных договоров с работниками Navoiyazot; |
| 28.6.7. jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzishda ular uchun xizmat va tijorat sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlar hajmi va tarkibini belgilash; | 28.6.7. при заключении трудовых договоров с работниками Navoiyazot определять для них объем и состав сведений, составляющих служебную и коммерческую тайну; |
| 28.6.8. jamiyat nomidan ishonchnomalar berish; | 28.6.8. выдавать доверенности от имени Navoiyazot; |
| 28.6.9. banklarda jamiyat hisob-kitob va boshqa raqamlarini ochish va yopish; | 28.6.9. открывать и закрывать в банках расчетный и другие счета Navoiyazot; |
| 28.6.10. bitimlarni tuzish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatlari doirasiga kiritilgan bitimlar bundan mustasno; | 28.6.10. совершать сделки, за исключением сделок, совершение которых отнесено к исключительной компетенции Общего Собрания Акционеров и Наблюдательного Совета; |
| 28.6.11. jamiyat Ustavida shartlab o'tilgan chegaralarda mulk va pul mablag'larini tasarruf etish; | 28.6.11. распоряжаться имуществом и денежными средствами в пределах, оговоренных Уставом Navoiyazot; |
| 28.6.12. unga bo'ysunadigan barcha xodimlar ijro etishi majbur bo'lgan jamiyat faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha buyruqlar va farmoyishlar chiqarish; | 28.6.12. издавать приказы и распоряжения по вопросам, связанным с деятельностью Navoiyazot, обязательные к исполнению для всех подчиненных ему работников; |
| 28.6.13. jamiyat xodimlari tomonidan mehnat intizomi buzilgan taqdirda, ularga intizomiy jazo choralarini qo'llash, shuningdek ushbu vakolatlarni boshqa shaxsga berish; | 28.6.13. В случае нарушения работниками общества трудовой дисциплины применять к ним меры дисциплинарного воздействия, а также Делегировать данные полномочия; |
| 28.6.14. jamiyat xodimlarini rag'batlantirish; | 28.6.14. осуществлять поощрение работников Navoiyazot; |
| 28.6.15. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tasdiqlagan tashkiliy tuzilma asosida jamiyat shtat jadvalini tasdiqlash, malakali xodimlar bilan to'ldirish. Bunda, xodimlar sonining umumiy miqdori doirasida shtatlar jadvaliga va xodimlar soniga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Bunda o'zgartirishlar Jamiyatning ish haqi fondi doirasida amalga oshirish; | 28.6.15. Утверждение штатного расписания общества на основе организационной структуры, утвержденной общим собранием акционеров, пополнение квалифицированным персоналом. При этом вправе вносить изменения в штатное расписание и численность персонала в пределах общей численности персонала. При этом изменения вносятся в рамках фонда заработной платы общества; |
| 28.6.16. bank hujjatlariga imzo chekish huquqiga ega shaxslar ro'yxatini tasdiqlash; | 28.6.16. утверждать перечни лиц, имеющих право подписи на банковских документах; |
| 28.6.17. jamiyat nomidan jamoa muzokaralarga kirishish va jamoa shartnomalarini tuzish; | 28.6.17. вступать от имени Navoiyazot в коллективные переговоры и заключать коллективные договоры; |
| 28.6.18. uning vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar hal etilishini tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga topshirish; | 28.6.18. поручать решение отдельных вопросов, относящихся к его компетенции, руководителям структурных подразделений; |
| 28.6.19. Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilishi tashkilotchisi va koordinatori bo'lish, shu jumladan aksiyadorlarga umumiy yig'ilish o'tkazilishi to'g'risida xabarnomalarni tarqatish, barcha kerakli hujjatlarni tayyorlash va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilishini tashkillashtirish bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etish; | 28.6.19. по согласованию с Наблюдательным Советом, являться организатором и координатором проведения Общих Собраний Акционеров, том числе, рассылать уведомления Акционерам о проведении Общего Собрания, подготавливать все необходимые документы и решать все другие вопросы, связанные с организацией проведения Общих Собраний Акционеров. |
| 28.6.20. jamiyat boshqaruvining tuzilmaviy bo'linmalari to'g'risida nizomlarni tasdiqlash. | 28.6.20. утверждать Положения о структурных подразделениям управления Navoiyazot. |
| 28.7. Jamiyat boshqaruv raisi quyidagilarga majbur: | 28.7. Председатель правления общества обязан: |
| 28.7.1. o'z vakolatlari doirasida jamiyatning uning samarali va barqaror | 28.7.1. осуществлять в пределах своей компетенции руководство |

| | |
|---|---|
| ishlashini ta’minlagan holda faoliyatiga rahbarlik qilish, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolati doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno; | текущей Деятельностью Navoiyazot, за исключением вопросов, отнесенных к исключительной компетенции Общего Собрания Акционеров и Наблюдательного Совета, обеспечивая его эффективную и устойчивую работу; |
| 28.7.2. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlari ijro etilishini tashkillashtirish; | 28.7.2. организовывать исполнение решений Общего Собрания Акционеров и Наблюдательного Совета; |
| 28.7.3. jamiyat ishlab chiqarish birliklari, sexlari va boshqa tuzilmaviy bo‘linmalarining o‘zaro samarali ishlashini ta’minlash; | 28.7.3. обеспечивать эффективное взаимодействие производственных единиц, цехов и других структурных подразделений Navoiyazot; |
| 28.7.4. jamiyat shartnomaviy majburiyatlari bajarilishini, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan miqdorda foyda olishni ta’minlash; | 28.7.4. обеспечивать выполнение договорных обязательств Navoiyazot, получение прибыли в размерах, необходимых для развития производства и социальной сферы; |
| 28.7.5. jamiyat dasturlari va biznes rejalari ishlab chiqilishini boshqarish, ular bajarilishini tashkillashtirish va nazorat qilish; | 28.7.5. руководить разработкой программ и бизнес-планов развития Navoiyazot, организовывать и контролировать их исполнение; |
| 28.7.6. jamiyat yillik biznes-rejasining bajarilishi to‘g‘risida hisobotni har chorakda kuzatuv kengashiga taqdim etish; | 28.7.6. представлять Наблюдательному Совету ежеквартальный отчет о ходе выполнения годового бизнес-плана Navoiyazot; |
| 28.7.7. jamiyat faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish; | 28.7.7. обеспечивать соблюдение требований законодательства в деятельности Navoiyazot; |
| 28.7.8. jamiyat buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tashkil etish, ularni ishonchliligini ta’minlash, tegishli tashkilotlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etish; | 28.7.8. обеспечивать организацию, надлежащее состояние и достоверность бухгалтерского учета и отчетности в Navoiyazot, своевременно предоставлять ежегодный отчет и другую финансовую отчетность в соответствующие органы, а также сведения о деятельности общества, направляемые Акционерам, кредиторам и иным получателям сведений; |
| 28.7.9. jamiyat moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni Kuzatuv kengashining va auditorlik tashkilotining talablariga ko‘ra to‘siqlarsiz taqdim qilish; | 28.7.9. беспрепятственно предоставлять документы о финансово-хозяйственной деятельности Navoiyazot по требованию Наблюдательного Совета, Ревизионной комиссии или аудиторской организации; |
| 28.7.10. tegishli tashkilotlarga davlat statistik hisobotlarni to‘liqligi va o‘z vaqtida taqdim qilinishini ta’minlash; | 28.7.10. обеспечивать полноту и своевременность государственной статистической отчетности в соответствующие органы; |
| 28.7.11. jamiyatning tijorat sirini tashkil qiluvchi axborotlarni oshkor qilmaslik, agar uning vazifalari doirasiga bunday axborotni uchinchi shaxslarga berish kirmasa; | 28.7.11. сохранять информацию, составляющую коммерческую тайну Navoiyazot, если в круг его обязанностей не входит передача такой информации третьим лицам; |
| 28.7.12. jamiyat xodimlari tomonidan xizmat yoki tijorat sirini tashkil qiluvchi axborotni oshkor qilinmasligini ta’minlash; | 28.7.12. обеспечивать сохранение информации, составляющей служебную или коммерческую тайну, работниками Navoiyazot; |
| 28.7.13. jamiyatni malakali kadrlar bilan ta’minlash hamda xodimlarining bilimlari, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan yanada yaxshi foydalanish bo‘yicha choralarni ko‘rish; | 28.7.13. принимать меры по обеспечению Navoiyazot квалифицированными кадрами, по наилучшему использованию знаний, квалификации, опыта и способностей работников Navoiyazot; |
| 28.7.14. mehnat va ishlab chiqarish intizomini saqlash; | 28.7.14. поддерживать трудовую и технологическую дисциплину; |
| 28.7.15. jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlari va mehnatni muhofaza qilinishiga rioya qilishni ta’minlash; | 28.7.15. обеспечивать соблюдение социальных гарантий и охраны труда работников Navoiyazot; |
| 28.7.16. Jamoa shartnomalarini va kelishuvlarni tuzishda ish beruvchi sifatida qatnashish hamda jamoa shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish; | 28.7.16. выступать в качестве работодателя при заключении коллективных договоров и соглашений. Выполнять обязательства по |
| 28.7.17. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashiga uning | |

| | |
|---|---|
| vakolatlari doirasiga kiruvchi ishlar holati to‘g‘risida ma’ruzalarni o‘rnatilgan muddatlarda taqdim etish;<br>28.7.18. aksiyadorlarning amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan axborotni olish, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlarida ishtirok etish, dividendlarni hisoblash va to‘lash bo‘yicha barcha huquqlarga rioya qilish;<br>28.7.19. O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligining qoidalariga va jamiyatning ichki hujjatlariga rioya qilish;<br>28.7.20. aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va/yoki Kuzatuv kengashi unga topshirishi mumkin bo‘lgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.<br>28.8. Boshqaruv raisi bo‘lmaganida, uning huquq va majburiyatlari jamiyatning tegishli buyrug‘i bilan boshqa shaxsga yuklatiladi.<br>28.9. Jamiyat boshqaruv raisi vazifasini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan bir vaqtda faoliyat olib borishga faqatgina jamiyatning Kuzatuv kengashi qarori bilan yo‘l qo‘yiladi.<br>28.10. Jamiyat boshqaruvi jamiyat ustavi asosida ish yuritadi va o‘z vakolati doirasida quyidagi majburiyat va huquqlarga ega:<br>28.10.1. jamiyatning mol-mulk va pul mablag‘larini boshqarish;<br>28.10.2. jamiyatning tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizom va jamiyat xodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini tasdiqlash;<br>28.10.3. jamiyatning ichki me’yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoki Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiradigan ichki normativ hujjatlar bundan mustasno;<br>28.10.4. jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan jamiyat boshqaruvi qarorlarini qabul qilish;<br>28.10.5. jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqilishini hamda ularni bajarilishini nazorat qilish;<br>28.10.6. jamiyatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko‘rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta’minlash;<br>28.10.7. jamiyat buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tashkil etish, ularni ishonchliligini ta’minlash, tegishli tashkilotlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etish;<br>28.10.8. jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni jamiyat Kuzatuv kengashi yoki jamiyat auditori talabiga ko‘ra qarshiliksiz taqdim etish;<br>28.10.9. o‘z vakolati doirasida mol-mulkni sotib olish yoki uni begonalashtirish, hamda begonalashtirish ehtimoli bilan bog‘liq bitimlar tuzish (agar boshqaruv a’zolari bir ovozdan kelishmasa, ushbu bitimni tuzish masalasi | коллективному договору;<br>28.7.17. предоставлять в установленные сроки Общему Собранию Акционеров и Наблюдательному Совету доклады о состоянии дел, относящихся к его компетенции;<br>28.7.18. соблюдать все права Акционеров по получению ими предусмотренной действующим законодательством информации, участию в Общих собраниях Акционеров, начислению и выплате дивидендов;<br>28.7.19. соблюдать положения внутренних документов Navoiyazot и действующего законодательства Республики Узбекистан.<br>28.7.20. выполнят другие обязанности, которые ему может Делегировать Общее Собрание Акционеров и/или Наблюдательный Совет.<br>28.8. В отсутствии председателя правления его права и обязанности возлагаются соответствующим приказом Navoiyazot.<br>28.9. Совмещение функции председателя правления Navoiyazot с должностью в органах управления других организаций допускается только с согласия наблюдательного совета Navoiyazot.<br>28.10. Правление Общества действует на основании Устава и в рамках своих полномочий имеет обязанность и право:<br>28.10.1. распоряжаться имуществом и денежными средствами Общества;<br>28.10.2. утверждать положения о структурных подразделениях Общества и должностные инструкции работников Общества;<br>28.10.3. утверждать внутренние нормативные Документы Общества, за исключением внутренних нормативных документов, утверждение которых отнесены к компетенции общего собрания акционеров или Наблюдательного совета;<br>28.10.4. принимать решения Правления Общества, обязательные для исполнения структурными подразделениями общества;<br>28.10.5. разрабатывать программы и бизнес-планы развития Общества, контролировать их исполнение;<br>28.10.6. обеспечивать получение прибыли в размере, предусмотренном бизнес - планом, утвержденного уполномоченным органом Общества;<br>28.10.7. обеспечивать организацию, надлежащее состояние и достоверность бухгалтерского учета и отчетности в Обществе, а также сведений о деятельности Общества, направляемых акционерам, кредиторам иным получателям сведений;<br>28.10.8. беспрепятственно предоставлять документы о финансово-хозяйственной деятельности Общества по требованию Наблюдательного совета, ревизионной комиссии или аудитора Общества;<br>28.10.9. в рамках своей компетенции заключат сделки, связанны с отчуждением или приобретением имущества, либо возможностью |

| | |
|---|---|
| jamiyatning kuzatuv kengashiga koʻrib chiqish uchun kiritiladi);<br>28.10.10. jamiyatning tijorat siri boʻlgan maʼlumotlarini saqlash;<br>28.10.11. dividendlar hisoblanishi va toʻlanishi boʻyicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;<br>28.10.12. oʻz vakolati doirasida jamiyatning samarali va barqaror ishlashini taʼminlash;<br>28.10.13. Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari talablari hamda jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish;<br>28.10.14. har qanday bitim tuzilishida yoki jamiyatga bevosita tegishli boʻlgan har qanday masalada muhim manfaatdorligi (toʻgʻridan-toʻgʻri, bilvosita yoki uchinchi shaxslar nomidan) toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni jamiyat kuzatuv kengashiga yetkazish;<br>28.10.15. jamiyat obroʻsiga zarar yetkazuvchi xatarlarini boshqarish;<br>28.10.16. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, mazkur ustav va jamiyatning meʼyoriy hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega boʻlishi mumkin.<br>28.11. Jamiyat boshqaruvining majlislarida bayonnoma yuritiladi. Jamiyat boshqaruvi majlisining bayonnomasi Kuzatuv kengash aʼzolari talabiga koʻra beriladi.<br>28.12. Jamiyatning boshqaruvi majlislarini oʻtkazishni boshqaruv raisi tashkillashtirib, u jamiyat nomidan barcha hujjatlarni va jamiyat boshqaruvi majlisining bayonnomasini imzolaydi, jamiyat boshqaruvi tomonidan uning vakolat doirasida qabul qilingan qarorlarga muvofiq jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi.<br>28.13. Ijroiya organi rahbari va uning oʻrinbosarlari faoliyatining samaradorligi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili tasdiqlanadigan eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlari (KPI) asosida baholanadi.<br>Bunda ijroiya organi rahbari va uning oʻrinbosarlari faoliyatining keyingi hisobot yili uchun eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlari (KPI) va ularga erishish boʻycha “yoʻl xaritalari” rahbar va oʻrinbosarlar uchun alohida choraklar kesimida ishlab chiqilib, kuzatuv kengashi tomonidan maʼqullanganidan soʻng, tasdiqlash uchun har yili 15 dekabriga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.<br>28.14. Ijroiya organi rahbari va uning oʻrinbosarlarini ragʻbatlantirish Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-martdagi PF-49-son Farmonida belgilangan tartibda ularning KPI natijalaridan kelib chiqib, jamiyatning ichki meʼyoriy hujjatlarida va/yoki biznes-rejasida belgilangan | отчуждения (в случае если члены Правления не приходят к единогласию, вопрос о заключении данной сделки выносится на решение Наблюдательного совета);<br>28.10.10. хранить сведения, содержащие коммерческую тайну Общества;<br>28.10.11. соблюдать все права акционеров по начислению и дивидендов;<br>28.10.12. В рамках своей компетенции обеспечивать эффективное и стабильное функционирование Общества;<br>28.10.13. соблюдать требования законодательства Республики Узбекистан и внутренних документов Общества;<br>28.10.14. сообщать наблюдательному совету Общества сведения о наличии существенной заинтересованности (прямой, косвенной или от имени третьих лиц) в заключении какой-либо сделки или в каком-либо вопросе, непосредственно касающемся Общества;<br>28.10.15. управлять репутационными рисками Общества;<br>28.10.16. иметь и другие полномочия (права) и обязанности в соответствии законодательством Республики Узбекистан, настоящим уставом и нормативными документами Общества.<br>28.11. На заседании правления Navoiyazot ведется протокол. Протокол заседания правления Navoiyazot представляется членам наблюдательного совета и ревизионной комиссии по их требованию.<br>28.12. Проведение заседаний правления Navoiyazot организует председатель правления, который подписывает все документы Navoiyazot и протоколы заседания правления Navoiyazot, действует без доверенности от имени Navoiyazot в соответствии с решениями правления Navoiyazot, принятыми в пределах его компетенции.<br>28.13. Эффективность деятельности руководителя исполнительного органа и его заместителей оценивается на основе важнейших показателей эффективности (KPI), ежегодно утверждаемых Кабинетом министров.<br>При этом наиболее важные показатели эффективности (KPI) и “дорожные карты” по их достижению на следующий отчетный год деятельности руководителя исполнительного органа и его заместителей разрабатываются в разрезе отдельных кварталов для руководителя и заместителей и после утверждения наблюдательным советом вносятся в Кабинет министров для утверждения до 15 декабря каждого года.<br>28.14. Стимулирование руководителя исполнительного органа и его заместителей осуществляется в порядке, установленном Указом Президента Республики Узбекистан от 13 марта 2024 года №УП-49, исходя из результатов их KPI, в размере, установленном внутренними нормативными документами и/или бизнес-планом общества. |

| | |
|---|---|
| miqdorda amalga oshiriladi. | |
| **XXIX. KUZATUV KENGASHI VA JAMIYAT IJROIYA ORGANI A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI** | **XXIX. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЧЛЕНОВ НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА ИСПОЛНИТЕЛЬНОГО ОРГАНА ОБЩЕСТВА** |
| 29.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi va ijroiya organi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.<br>29.2. Agar mazkur 29-bandning qoidalariga muvofiq bir necha shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari, boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi bundan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-370-sonli Qonunning(yangi tahrirda) 90-moddasida belgilangan hollar mustasno.<br>29.3. Jamiyat ijroiya organi jamiyat mulkini tasarruv etishdan shaxsiy foyda olish bo'yicha harakatlarga yo'l qo'ymasliklari kerak.<br>29.4. Ijroiya organi o'zining ushbu lavozimda ishlagan faoliyati davrida jamiyat mahsulotini sotish yoki xizmatlarini ko'rsatishda qiyinchiliklarga olib keladigan korxonalarni tashkil etishda yoki ularda ishtirok etish huquqiga ega emas.<br>29.5. Jamiyat joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida 1 % (bir foiziga) egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi, direktori va/yoki ijroiya organi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.<br>29.6. Sud jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosini, direktorini yoki boshqaruvi a'zosini jamiyatga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a'zoning, direktorning yoki boshqaruv a'zosining vakolatlari sudning qaroriga ko'ra, ularning xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashini taqiqlagan holda, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tugatilishi mumkin.<br>29.7. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, direktori yoki boshqaruvi a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi jamiyatga chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganligi yoxud o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida yirik bitim tuzishni va (yoki) yirik bitim tuzish va (yoki) affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilishni taklif etganligi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.<br>29.8. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, boshqaruv direktori yoki a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi quyidagilar natijasida jamiyatga yetkazilgan | 29.1. Члены Наблюдательного Совета и исполнительного органа Navoiyazot при осуществлении своих прав и выполнении своих обязанностей должны действовать в интересах Navoiyazot и нести ответственность в установленном порядке.<br>29.2. В случае, если в соответствии с положениями настоящей статьи 29 ответственность несут несколько лиц, их ответственность перед Navoiyazot является солидарной. Не несут ответственности члены Наблюдательного Совета и правления, не принимавшие участия в голосовании или голосовавшие против решения, которое повлекло причинение Navoiyazot убытков, за исключением случаев, установленных статьей 90 ЗРУ-370 (новая редакция).<br>29.3. Исполнительный орган Navoiyazot не должен допускать действий по извлечению личных выгод из распоряжения имуществом Navoiyazot.<br>29.4. Исполнительный орган в период своей работы в этом качестве не имеет права учреждать или принимать участие в учреждении предприятий, деятельность которых создает трудности СО сбытом продукции или в предоставлении услуг Navoiyazot.<br>29.5. Акционер (Акционеры), являющийся владельцем не менее чем 1% (одним процентом) размещенных акций Navoiyazot, вправе обратиться в суд к члену Наблюдательного Совета и/или исполнительному органу Navoiyazot о возмещении убытков, причиненных обществу.<br>29.6. Полномочия члена наблюдательного совета, председателя или члена правления общества могут быть прекращены по решению суда, с запретом на занятие руководящей должности в хозяйственных обществах на срок не менее одного года, в случае признания судом его виновным в причинении имущественного вреда обществу<br>29.7. Член наблюдательного совета, председатель или член правления общества, а также доверительный управляющий может быть привлечен к ответственности за ущерб, причиненный обществу в результате предоставления информации, вводящей в заблуждение, или заведомо ложной информации либо предложения к заключению и (или) принятию решений о заключении крупной сделки и (или) сделки с аффилированными лицами с целью получения ими либо их аффилированными лицами прибыли (дохода).<br>29.8. Член наблюдательного совета, директор или член правления общества, а также доверительный управляющий несут ответственность за убытки, причиненные обществу в результате: |

| | |
|---|---|
| zarar uchun javobgar bo'ladi:<br>chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;<br>ushbu Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;<br>jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik;<br>fidutsiar majburiyatlarni bajarmaslik.<br>29.9. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining, jamiyat direktorining, boshqaruv a'zolarining hamda ishonchli boshqaruvchining fidutsiar majburiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:<br>vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, jamiyat va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko'p aks ettiruvchi usullardan foydalanishni;<br>jamiyat mol-mulkidan jamiyatning ustaviga va ichki hujjatlariga zid ravishda va (yoki) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va (yoki) kuzatuv kengashining qarorlarisiz, shaxsiy manfaatlarini ko'zlab foydalanmaslikni hamda undan boshqa shaxslar tomonidan shu tarzda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikni;<br>jamiyatning biznes imkoniyatlaridan yoki jamiyat uchun manfaatli bo'lgan ob'ektlardan o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki o'z mavqeidan kelib chiqqan holda, jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz, shaxsiy naf olish maqsadida yoki boshqa shaxslar manfaatlarini ko'zlab, shunday naf olishga ko'maklashish maqsadida foydalanmaslikni;<br>jamiyatning asosiy faoliyati yo'nalishlariga xos bo'lgan sohadagi tadbirkorlik faoliyatini jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz amalga oshirmaslikni;<br>qonunchilikka, jamiyatning ichki hujjatlariga va shartnomaga muvofiq jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslikni;<br>o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslikni yoki bundan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mulkiy manfaatdor bo'lmaslikni. | предоставления информации, вводящей в заблуждение, или заведомо ложной информации;<br>нарушения порядка предоставления информации, установленного настоящим Законом;<br>предложения к заключению и (или) принятию решений о заключении крупных сделок и (или) сделок, в совершении которых имеется заинтересованность, а также сделок с аффилированными лицами с целью получения ими либо их аффилированными лицами прибыли (дохода), повлекшего возникновение убытков общества;<br>невыполнение фидуциарных обязательств.<br>29.9. Фидуциарные обязательства членов наблюдательного совета общества, директора общества, членов правления и доверительного управляющего включают следующие:<br>действовать добросовестно, используя наиболее соответствующие интересам общества и акционеров методы;<br>не пользоваться имуществом общества в личных интересах и не допускать такого использования в интересах других лиц вопреки уставу и внутренним документам общества и (или) без решений общего собрания акционеров и (или) наблюдательного совета;<br>не пользоваться бизнес-возможностями общества или объектами, представляющими интерес для общества, в связи с выполнением своих обязанностей или исходя из своего статуса в целях получению личной выгоды или оказания содействия в получении такой выгоды в интересах других лиц, без согласия на то соответствующих органов управления общества;<br>не осуществлять предпринимательскую деятельностью в области, характерной основным направлениям деятельности общества, без согласия соответствующих органов управления общества;<br>не раскрывать информацию о деятельности общества, являющуся конфиденциальной в соответствии с законодательством, внутренними документами общества и договором;<br>не получать материальных ценностей или иной имущественной выгоды от заинтересованных в этом лиц за принятие решений, связанных с исполнением своих обязанностей. |
| **XXX. BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTI. HUJJATLARNI SAQLASH. AXBOROT BERISH** | **XXX. БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ И ОТЧЕТНОСТЬ. ХРАНЕНИЕ ДОКУМЕТОВ. ПРЕДОСТАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИИ** |
| 30.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, O'zbekiston buxgalteriya hisobining milliy standartlariga (BHMS) va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadi va moliyaviy hisobotlarni taqdim etishi shart. | 30.1. Navoiyazot ведет бухгалтерский учет и предоставляет финансовую отчетность в соответствии законодательством Республики Узбекистан, НСБУ Узбекистана и МСФО.<br>30.2. Ответственность за организацию, состояние и достоверность бухгалтерского учета в Navoiyazot, своевременное представление |

| | |
|---|---|
| 30.2. Jamiyat buxgalteriya hisobi tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarda aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik jamiyat ijroiya organining zimmasida bo‘ladi.<br>30.3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga taqdim etiladigan jamiyatning moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag‘idagi ma’lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog‘liq bo‘lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.<br>30.4. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi jamiyat tashqi auditori sifatida va yillik moliyaviy hisobotni tasdiqlash uchun jamiyatning mulkiy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan auditorlik tashkilotini tayinlaydi.<br>30.5. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan 30 (o‘ttiz) ish kundan kechiktirmay jamiyatning Kuzatuv kengashiga dastlabki tasdiqlanishi uchun taqdim qilinishi kerak.<br>30.6. Jamiyat o‘z faoliyati bilan bog‘liq hujjatlarni saqlashi shart. Majburiy saqlanishi kerak bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati qonunchilikda belgilanadi.<br>30.7. Jamiyat aksiyadorlarga qonunchilikda nazarda tutilgan hujjatlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi, buxgalteriya hisobi hujjatlari hamda jamiyat boshqaruvi raisi buyruqlari va aksiyadorlari reyestri bundan mustasno.<br>30.8. Jamiyat qonunchilikda nazarda tutilgan tartib va muddatlarda jamiyat to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishi shart. | ежегодного отчета и другой финансовой отчетности в соответствующие органы, а также сведений о деятельности Navoiyazot, предоставляемых акционерам, кредиторам на официальном веб-сайте Navoiyazot и в средства массовой информации, несет Председатель правления в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.<br>30.3. Достоверность данных, содержащихся в финансовой отчетности и предоставляемых Общему Собранию Акционеров, бухгалтерском балансе, счете прибыли и убытков, должна быть подтверждена аудиторской организацией, не связанной имущественными интересами с Navoiyazot или его Акционерами.<br>30.4. Общее Собрание Акционеров назначает аудиторскую фирму, не связанную имущественными интересами с Navoiyazot, в качестве внешнего аудитора Navoiyazot и для проведения ежегодной ревизии Navoiyazot и подтверждения годовой финансовой отчетности.<br>30.5. Годовой отчет Navoiyazot подлежит предварительному утверждению Наблюдательным Советом не позднее чем за 30 (тридцать) рабочих дней до даты проведения годового общего Собрания Акционеров.<br>30.6. Navoiyazot обязано хранить документы, связанные со своей деятельностью Перечень документов, подлежащих обязательному хранению устанавливается законодательством.<br>30.7. Navoiyazot обеспечивает Акционерами доступ к документам, предусмотренным законодательством, за исключением документов бухгалтерского учета, а также приказов председателя правления и реестра Акционеров Navoiyazot.<br>30.8. Navoiyazot обязано осуществлять раскрытие информации об Navoiyazot в порядке и сроки, установленные законодательством. |
| **XXXI. JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH: AUDITORLIK TASHKILOTI, ICHKI AUDIT XIZMATI, JAMIYATNING KORPORATIV MASLAHATCHISI** | **XXXI. КОНТРОЛЬ ЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ОБЩЕСТВА: АУДИТОРСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ, СЛУЖБА ВНУТРЕННЕГО АУДИТА, КОРПОРАТИВНЫЙ КОНСУЛЬТАНТ ОБЩЕСТВА** |
| 31.1.Jamiyatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini tekshirish auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi. Auditorlik tashkiloti va uning audit o‘tkazish xizmatlariga haq to‘lashning eng yuqori miqdorini tasdiqlash jamiyat aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan amalga oshiriladi.<br>31.2. Auditorlik tashkiloti jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyat moliya-xo‘jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot to‘g‘risidagi noto‘g‘ri xulosani o‘z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar bo‘ladi. | 31.1. Проверка результатов финансово-хозяйственной Деятельности Navoiyazot осуществляется аудиторской организацией. Утверждение аудиторской организации и предельного размера оплаты услуг на проведение аудита осуществляется Общее собрание акционеров Navoiyazot.<br>31.2. Аудиторская организация осуществляет проверку финансово-хозяйственной деятельности Navoiyazot и предоставляет Navoiyazot аудиторское заключение В установленном законодательством порядке в соответствии с заключенным с ней договором. Аудиторская организация несет ответственность перед Navoiyazot за причинение ущерба вследствие составления аудиторского заключения, содержащего неправильный вывод |

| | |
|---|---|
| 31.3. Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, jamiyat Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishini ta'minlanishi, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.<br>31.4. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizomga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiradi.<br>31.5. Jamiyat korporativ maslahatchisi jamiyat Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi. | о финансовой отчетности и иной финансовой информации Navoiyazot.<br>31.3. С целью осуществления контроля и оценки работы исполнительного органа, филиалов и представительств Navoiyazot путем проверок и мониторинга соблюдения ими законодательства, Устава Navoiyazot и других документов, обеспечения полноты и достоверности отражения данных в бухгалтерском учете и финансовой отчетности, установленных правил и процедур осуществления хозяйственных операций, сохранности активов, а также соблюдения установленных законодательством требований по законодательством требований по управлению Navoiyazot, в обществе создается Служба Внутреннего Аудита Navoiyazot.<br>31.4. Служба Внутреннего Аудита Navoiyazot осуществляет свою деятельность в соответствии с порядком, определяемым Кабинетом Министров Республики Узбекистан, на основании Положения о Службе Внутреннего Аудита, утверждаемого Наблюдательным Советом Navoiyazot с требованиями действующего законодательства.<br>31.5. Корпоративный консультант Navoiyazot подотчетен Наблюдательному совету общества и выполняет функции контроля за соблюдением корпоративного законодательства. Деятельность корпоративного консультанта Navoiyazot осуществляется на основании положения, утвержденного наблюдательным советом Navoiyazot. |
| **XXXII. JAMIYATNI TUGATISH VA QAYTA TASHKIL ETISH** | **XXXII. ЛИКВИДАЦИЯ И РЕОРГАНИЗАЦИЯ** |
| 32.1. Jamiyatning aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq bankrot deb e'lon qilingan taqdirda sud qarori bo'yicha va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra tugatilishi mumkin.<br>32.2. Jamiyatni tugatish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 53-57-moddalariga, O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonunining (yangi tahririda) 98 va 101 -moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.<br>32.3. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ qo'shib yuborilgan yuridik shaxsning (jamiyatning) faoliyati tugatilganligi haqidagi yozuvni yuridik shaxsning (jamiyatning) yagona davlat reyestriga kiritgan paytdan e'tiboran jamiyat tugatilgan deb hisoblanadi.<br>32.4. Jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida amalga oshiriladi.<br>32.5. Jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va | 32.1. Navoiyazot может быть ликвидировано по решению, принятому общим собранием акционеров, суда в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, в случае объявления банкротом и по другим основаниям, предусмотренным действующим законодательством.<br>32.2. Ликвидация Navoiyazot осуществляется в соответствии со статьями 53-57 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, статьями 98-101 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» (новая редакция).<br>32.3. Ликвидация Navoiyazot производится в порядке, предусмотренном законодательством Республики Узбекистан. Ликвидация Navoiyazot считается завершенной, а Navoiyazot прекратившим существование с момента внесения регистрирующим органом соответствующей записи в единый государственный реестр юридических лиц.<br>32.4. Реорганизация Navoiyazot осуществляется В форме слияния, присоединения, разделения, выделения и преобразования по решению Общего Собрания Акционеров Navoiyazot.<br>32.5. В случаях, установленных законодательством, реорганизация Navoiyazot в форме слияния, присоединения или преобразования может быть осуществлена лишь с согласия уполномоченных государственных |

| | |
|---|---|
| oʻzgartirish shaklida amalga oshiriladi. Jamiyatni qayta tashkil qilish Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.<br>32.6. Qayta tashkil etish natijasida yangidan vujudga kelgan jamiyatlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazish hamda qayta tashkil etilgan jamiyatlarning faoliyati tugatilganligi toʻgʻrisidagi yozuvni kiritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.<br>32.7. Roʻyxatdan oʻtkazuvchi organ qayta tashkil etish natijasida tugatilayotgan jamiyat qimmatli qogʻozlarining chiqarilishi davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi bekor qilinganidan, shuningdek u yuridik shaxslarning yagona davlat reestridan chiqarilganidan keyin yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarni davlat roʻyxatidan oʻtkazishni amalga oshiradi.<br>32.8. Yangi tuzilgan yuridik shaxslar davlat roʻyxatiga olingan paytdan eʼtiboran jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi, birlashtirish tarzida qayta tashkil etish bundan mustasno. Jamiyat boshqa yuridik shaxsga qoʻshib yuborish yoʻli bilan qayta tashkil etilganda roʻyxatdan oʻtkazuvchi organ qoʻshib yuborilgan yuridik shaxsning (jamiyatning) faoliyati tugatilganligi haqidagi yozuvni yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritgan paytdan eʼtiboran jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi. | органов. Реорганизация Navoiyazot производится законодательством Республики Узбекистан.<br>32.6. Государственная регистрация вновь возникших реорганизации юридических лиц и внесение записи о прекращении деятельности реорганизованных юридических лиц осуществляются в порядке, установленном законодательством.<br>32.7. Регистрирующий орган осуществляет государственную регистрацию вновь возникших юридических лиц после аннулирования государственной регистрации выпуска ценных бумаг, ликвидируемого в результате реорганизации Navoiyazot, а также исключения его из единого государственного реестра юридических лиц.<br>32.8. Navoiyazot считается реорганизованным, за исключением случаев реорганизации в форме присоединения, с момента государственной регистрации вновь возникших юридических лиц. При реорганизации Navoiyazot путем присоединения К другому юридическому лицу, Navoiyazot считается реорганизованным с момента внесения регистрирующим органом в единый государственный реестр юридических лиц записи о прекращении деятельности присоединенного юридического лица (общества). |
| **XXXIII. TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIK** | **XXXIII. РЕГУЛИРУЮЩЕЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО** |
| 33.1. Mazkur Ustavni tartibga soluvchi qonunchiligi deb Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi hisoblanadi. | 33.1. Регулирующим законодательством настоящего Устава является законодательство Республики Узбекистан. |
| **XXXIV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI** | **XXXIV. ПОРЯДОК РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ** |
| 34.1. Jamiyatning yuridik va jismoniy shaxslar bilan boʻlgan barcha nizolari tegishli sudda yoki bunga vakolatli boshqa organlarda koʻrib chiqiladi. | 34.1. Все споры по делам Navoiyazot с юридическими и физическими лицами рассматриваются в соответствующем суде или других на то уполномоченных органах в соответствии с применимым правом. |
| **XXXV. XABARNOMALAR** | **XXXV. УВЕДОМЛЕНИЯ** |
| 35.1. Mazkur Ustavda oʻzga qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, ushbu Ustavda talab qilinadigan yoki ruxsat etilgan har qaysi xabarnoma, iltimosnoma, rozilik yoki boshqa yozishmalar (birgalikda “xabarnoma”) yozma ravishda shaxsan, roʻyxatdan oʻtgan pochta orqali yetkazilib berilishi kerak.<br>35.2. Har qanday xabarnomaning yetkazib berishning haqiqiy sanasi deb quyidagilar hisoblanadi:<br>35.2.1. shaxsan - yetkazib berilgan kun yoki olingan kun;<br>35.2.2. buyurtma pochta orqali - joʻnatmani qabul qilgan boʻlinmaning pochta shtampi sanasi;<br>35.3. Agar xabarnomani olish kuni adresatning shanba, yakshanba yoki bayram kuniga toʻgʻri kelsa, unda yetkazib berilganlikning haqiqiy sanasi deb keyingi birinchi ish kuni hisoblanadi. | 35.1. Если иное не указано в настоящем Уставе, любое уведомление, просьба, согласие или другая корреспонденция (собирательно "Уведомление"), требуемая или разрешенная настоящим Уставом, должны быть выполнены в письменном виде с доставкой либо лично, либо заказной почтой, либо по телефаксу или телексу.<br>35.2. Действительной датой доставки любого Уведомления считается:<br>35.2.1. нарочный день доставки и дата получения;<br>35.2.2. заказной почтой - дата почтового штемпеля отделения, принявшего отправление;<br>35.3. Если день получения уведомления совпадает с субботой, воскресеньем или праздничным днем адресата, то действительной датой доставки будет считаться первый следующий рабочий день. |

| | |
|---|---|
| 35.4. Shaxsan yetkazib berilgan taqdirda, yetarlicha yetkazib berilganlik dalili deb to'g'ri manzilga yetkazib berilganlik dalili bo'ladi. | 35.4. При доставке достаточным доказательством, в случае личной доставки, будет доказательство доставки на правильный адрес; в случае сообщения по факсу подтверждение получения электронными средствами. |

"Navoiyazot" AJ boshqaruv raisi v.b. ______________ Ф.Х. Самадов И.о. председателя правления

Raqamlangan va tikilgan
sahifalar soni 48

Boshqaruv raisi v.b. F.X. Samadov